

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

TUXTAEVA SARVINOZ TULKINBOEVNA

AFAZIYANING NUTQDA VOQYELANISH OMILLARI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

Katta o‘qit. N.Bekmuxamedova

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	6-10
ASOSIY QISM:	
I BOB. AFAZIYA VA UNING TURLARI.....	11-34
1.1. Motor afaziya	
1.2. Sensor afaziya	
1.3. Semantik afaziya	
II BOB. AFAZIYA HOLATINING TIL SATHLARIDA NAMOYON BO‘LISH OMILLARI.....	35-52
1.1. Afaziya holatining fonetik sathda namoyon bo‘lish omillari	
1.2. Afaziya holatining leksik va semantik sathda nomoyon bo‘lish omillari	
1.3. Afaziya holatining morfologik va sintaktik sathda namoyon bo‘lish omillari	
XULOSA.....	53-54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	55-56

Ishning umumiy tavsifi.

1. Mavzuning dolzarbligi. Vatanimiz taqdiri yoshlar qo‘lida. Shunday ekan biz yuksak ma’naviyatga, bilimga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashga alohida e’tibor berishimiz kerak. Har bir xalqning o‘zligini ko‘rsatuvchi bu uning tilidir. Shu sababli ham muhtaram yurtboshimiz mustaqillikka erishganimizdan so‘ng tilimizga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirdi. “Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali amalga oshadi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. Shu borada o‘zbek tilining kompyuter va internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo‘llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog‘liq katta ekanini ko‘rsatadi”,¹ - deya ta’kidlaydi. Davlat rahbarimizning ona tilimiz xususida yuritgan bu fikrlari o‘zbek tilshunoslari zimmasiga juda katta vazifalarni yuklaydi. Bugungi kunda tilshunoslikning ko‘pgina yo‘nalishlarini o‘rganish va tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlardan foydalangan holda bitiruv malakaviy ishida nutqiy buzilishlarning til sathlarida namoyon bo‘lish omillariga to‘xtalamiz.

XX asrda bir nechta chegaradosh fanlar paydo bo‘ldi. Tilshunoslik sohasida ham xuddi shunday fan Neyrolingvistika fani vujudga keldi. Bu fan nevrofiziologiya va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan fan hisoblanadi. Neyrolingvistika fanining yo‘nalishlarida biri bo‘lgan Afaziya, uning turlari va afaziyaning til sathlarida, ya’ni tilning fonetik, leksik, grammatik va semantik sathlarida namoyon bo‘lishini o‘rganish, nutqiy buzilishlarni tadqiq qilish logopedik muammolarni bartaraf etishda nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi ilm-fan borasida yuzaga kelgan yutuqlarni o‘rganishimiz, tadqiq etishimiz va rivojlantirishimiz zarur.

2. Mavzuning o‘rganilish darajasi. Neyrolingvistika fani yevropada vujudga kelganligi uchun ham neyrolingvistika yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan afaziya va uning turlari, afaziyaning til sathlarida namoyon bo‘lish omillari ham Yevropa

¹ . Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmās⁴ kuch. – Toshkent, 2008. 83-86-bet

fiziologlari va tilshunoslari tomonidan o'rganilgan. Xususan, Boduen de Kurtene afaziyaning uchta tarkibiy komponentini tadqiq qilgan.²

Aleksandr Romanovich Luriya A.P.Pavlov va L.S. Vigotskiylarning ilmiy va amaliy tadqiqotlariga asoslangan holda nazariy ma'lumotlar beradi. U bosh miya faoliyatini uchta katta blokka ajratgan holda afaziyaning 6 ta eng mukammal turlarini ko'rsatadi va shu turlari asosida afaziyaning til sathlarida namoyon bo'lishini tadqiq etganligini ta'kidlaydi.³

V.Penfield va L. Robertslar ham nutq bilan miyaning bog'liqlik jihatlarini o'rganishgan va J. Vinarskiy afaziyaning klinik muammolarini neyrolingvistik analiz qilgan.⁴ T.V. Axutina esa dinamik afaziyada neyrolingvistik tahlil olib boradi.

Ulardan tashqari L.S Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, V.M.Kogan, M.S.Lebedinskiy, E.S.Beyn kabi mashhur psixologlar ham afaziya holatini tadqiq etganlar. Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida ham afaziologiya bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Til nazariyasi va amaliyoti kafedra KIXIsi I.Azimovanning "O'zbek tilidagi agrammatik afaziyaning psixolingvistik xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik ishi hamda shu kafedraning magistranti S.Ashirboyevaning bitiruv malakaviy ishi mavzusi "Neyrolingvistikada nutqiy patalogiyalar muammosi" bunga yaqqol misol bo'la oladi.

3. Ishning maqsadi. Neyrolingvistika fanining yo'nalishlaridan biri bo'lgan afaziya, uning turlari, afaziya holatida yuz beradigan nutqiy buzilishlar va afaziyaning til sathlarida namoyon bo'lish omillarini o'rganish, tadqiq etish va rivojlantirish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

4. Ishning vazifalari. Mazkur ishning maqsadidan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishining vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- nutq buzilishlarini tadqiq qilgan olimlarni qarashlarini o'rganish;
- nutqiy buzilishning kelib chiqish sabablarini va ularni tasniflash;

² Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга – М, 1969.

³ Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики – М, 1975.

⁴ Вынарская Е.Н. Клинические проблемы афазии – М, 1971.

- afaziya va uning turlari, afaziya holatida yuz beradigan nutqni tushunish, eshitish, fikr yurita olmaslikdagi qiyinchiliklar to'g'risida ma'lumot berish;
- afaziyaning fonetik, leksik, grammatik va semantik sathda namoyon bo'lish omillari haqida ma'lumot berish;

Ishning metodologik asoslari. Bu ishni o'rganishda qiyosiy va kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Ishning obekti va predmeti: Afaziya, ya'ni nutqiy buzilish ishning obektini tashkil qilsa, ishning predmeti afaziyaning til sathlarida namoyon bo'lishini tadqiq etishdan iborat.

Ishining tuzilishi va hajmi: Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

KIRISH.

Neyrolingvistika (grek tilidan νεῦρον – nerv, lingua – til) – bu psixologiya faning tarmogʻi boʻlib, psixologiya, nevrologiya va lingvistikani chegaralarida vujudga kelgan, “nutqiy faoliyatning miyadagi mexanizmlarini oʻrganuvchi va miyaga mahalliy shikast yetishida nutqiy jarayonlarda sodir boʻladigan oʻzgarishlarni” oʻrganadi. Neyrolingvistikaning fan sifatida shakllanishi bir tarafdin neyropsixologiya, boshqa tarafdin esa lingvistika va psixolingvistikaning rivojlanishi bilan bogʻliq. Zamonaviy neyropsixologiya tasavvurlariga mos ravishda neyrolingvistika nutqni tizimli funktsiya, afaziyani esa birlamchi defekt va birlamchi defekt taʼsiri natijasida yuzaga keluvchi ikkilamchi buzilishlar, shuningdek miyaning buzilgan funktsiyalarini qayta tiklashga qaratilgan ish faoliyati natijasida paydo boʻluvchi tizimli buzilish sifatida oʻrganadi. Miyaning shikastlanishida tilga oid oʻzini tutish faoliyatining buzilishi boʻyicha olib borilgan tasodifiy kuzatuvlar oʻrta asr davridanoq maʼlum, biroq ularni tizimli ravishda oʻrganish XIX asrning 2-yarmidan boshlangan. Mamlakatimiz lingvistikasida til jihatlari patologiyasiga I.A.Boduen de Kurtene, V.A.Bogoroditskiy, L.V.Shcherba va boshqalar eʼtibor qaratganlar. Boduen de Kurtene afaziyani nutq faoliyatini tashkil etuvchi uch jihatidan, yaʼni fonatsiya (talaffuz qilish), auditsiya (qabul qilish) va erebratsiya (“shaxsiy miya markazida sodir boʻladigan jarayonlar”) jihatlari koʻra tadqiq qilgan. U tomonidan aytilgan qator fikrlar, dunyo tillarida fonologik tizimlarni qurilishi, ularning rivojlanishi va afaziya klinikasining parchalanishi oʻrtasidagi tizimli korrelyatsiyani taʼriflab bergan R.O.Yakobson asarlarida rivojlantirilgan. SSSRda neyrolingvistik tadqiqotlarning rivojlanishi A.R.Luriya tadqiqotlariga asoslanadi. Bilislarning alohida sohasi sifatida neyrolingvistika XX asrning 50-60-yillarida shakllana boshlagan, biroq bu fanning yuzaga kelishiga miyaning mahalliy shikastlanishida, yaʼni afaziyada nutq buzilishi haqidagi yuz yildan ortiqroq davr mobaynida toʻplangan bilimlar sabab boʻlgan. Neyrolingvistikaning paydo boʻlishiga, meditsinaning afaziya bilan kasallangan kishilarning davosi bilan shugʻullanuvchi sohasi afaziologiya amaliy talablari asosiy sabab boʻlgan₇ deb hisoblash mumkin. Neyrolingvistika

fani ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. I.M.Sechenovning tadqiqotlariga asoslangan Boduen de Kurtenening fikriga ko'ra psixik hodisalarni fiziologik substratdan ajratib bo'lmaydi, demak, ularning barchasi faqatgina tirik miya bilan birga mavjud bo'la oladi va uning "o'lim"idan so'ng yo'q bo'lib ketadi.⁵ Maxsus neyrolingvistika muammolari bilan Rossiya va Amerika lingvisti Roman Osipovich Yakobson shug'ullangan. R.O.Yakobsonning taqdirlashga loyiq xizmatlaridan biri bu nutqiy patologiyada tovush xususiyatlarining bo'linib ketishi qonuniyatlarini aniqlaganligidir. A.R.Luriya o'zining "Bosib o'tilgan yo'l bosqichlari" avtobiografik kitobida aynan Bernshteynning asarlari, motorli afaziya ikki xil shakllardan, ya'ni efferent va afferent shakllardan tashkil topgan, degan taxminiy fikrga kelishiga sabab bo'lganligini eslab o'tadi.⁶ Neyrolingvistikaning vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari neyropsixolog va mamlakatimiz neyrolingvistikasi asoschisi, nutqiy buzilishlarni tizimli tahlil qilishni lingvistika va psixolingvistikaning nazariy tushunchalari bilan umumlashtirgan Aleksandr Romanovich Luriya tadqiqotlari bilan bog'liq.

1836 yilda Fransiyaning Monpele shahrida bo'lib o'tgan tibbiyot jamiyati majlisida vrach Mark Daks miya shikastlanishi natijasida nutqini yo'qotganlarni tekshirishga bag'ishlangan ilmiy ma'ruza bilan qatnashdi. Mark Daks birinchi bo'lib nutqning yo'qolishi va miyaning shikastlangan tarafi o'rtasida bog'liqlik mavjud degan fikrni aytdi. Bu esa o'z navbatida unga nutqiy funksiyalar miyaning chap yarim sharida shakllanishi haqidagi fikrni aytish imkonini berdi. Garchi keyinchalik ma'ruza matni chop etilgan bo'lsa-da, ilmiy jamiyat Mark Daks tadqiqotlariga jiddiy ahamiyat bermadilar. Shunga qaramay, afaziologiyani paydo bo'lishini an'anaviy ravishda faqatgina ikki nafar kasalni patologoanatomik jihatdan o'rganish natijasida nutq markazini, ya'ni Brok markazini tasodifan aniqlagan fransuz jarrohi va antropologi Polem Broka nomi bilan bog'laydilar. Yorib ko'rish natijasida, har ikki kasalda ham bosh miyanig chap yarim sharining aynan bir xil sohalari shikastlanganligi ma'lum bo'ldi va aynan shu narsa Polem

⁵ Бодуен де Куртене И. А. Из патологии и эмбриологии языка. – Варшава, 1885

⁶ Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики – М, 2009

Brokaga avvalgi tadqiqotlar natijasiga tayangan holda nutqiy markazni lokallashtirish sohasida xulosalar chiqarish imkonini berdi. Ushbu nutq markazi shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan afaziyani Broka afaziyasi deb nomalay boshladilar. Nemis psixonevropatologi Karl Vernike ham bundan kam bo'lmagan kashfiyot qildi. 1873 yilda Vernike insultni boshidan o'tkazgan kasalni o'rganar edi. Bir tarafdin bu odam gapira olar edi, biroq u patologik ravishda gaplashar edi va uning eshitish qobiliyati shikastlanmagan, boshqa tarafdin esa u og'zaki va yozma nutqni qiyinchilik bilan anglab olar edi. Uning vafotidan so'ng yorib ko'rish jarayonida Vernike bemor miyasi chap yarim sharining orqa yuqori qismi va chakka qismida shikastlanishni ko'rdi. U miyaning eshitish sohasiga yaqin bo'lgan qismi nutqni tushunishda ishtirok etadi degan xulosaga keldi. Shunday qilib Karl Vernike 1874 yilda o'zining sensorli afaziyani yoki uning o'zi nomalaganidek, boshqaruv afaziyasini birinchi marotaba ta'riflab bergan 72 betli "Afazik simptomlar kompleksi" asarini chop etdi. O'z kitobida Vernike miyaning turli qismlaridagi psixik buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan turli afaziyalarni o'zaro bog'lashga harakat qilgan. Keyinchalik esa u Broka va Vernike qismlarini bog'lovchi yoysimon asab tolalarining shikastlanishi ham motorli yoki sensorli afaziyaga olib kelishini kashf qildi. Hozirgi kunda neyrolingvistik tadqiqotlarning Rossiyada shakllangan ikki turdagi an'analari haqida gapirish mumkin. Birinchisi A.R.Luriya Moskva neyrolingvistika maktabi bo'lib, hozirgi kunda T.V.Axutina tomonidan rivojlantirilmoqda. Ikkinchisi Balonov Deglin Sankt-Peterburg lingvistika maktabidir. Bu maktabning hozirgi rahbari T.V.Chernikovskaya hisoblanadi. Bu ikki maktabning nazariy masalalar bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida turli qarashlar yuzaga kelgan. Moskva maktabi neyrolingvistlari asarlarida nutqiy faoliyatda miya o'ng yarim sharining faoliyati nazardan chetda qoldirilishi yoki e'tiborga olinmaslik holatlari namoyon bo'ladi, Peterburg maktabi vakillari tadqiqotlarida esa turli nutq mexanizmlarining bosh miyaning ham o'ng, ham chap yarim sharlarida taqsimlanganligi haqidagi fikrlar qat'iyat va ketma-ketlikda keltiriladi.

Ko'pincha, turlari ko'p bo'lgan₉ fonologik, grammatik, leksik va

semantik buzilishlarni qamrab oladigan afaziyalar neyrolingvistik tadqiqotlarning predmeti bo'lib ishtirok etadi. Inson voqelikni his qilish organlari va ular bilan bog'liq bo'lgan miya analizatorlari – ko'rishga, eshitishga oid va taktil-kinestetik analizatorlar orqali aks ettirishi haqidagi neyrolingvistik tasavvurlar ham o'rganilmoqda.

Miyaning sensorli va harakatga keltiruvchi tizimidan farqli ravishda gnostik-praksik qobiq va qobiq analizatorlarining to'sish zonalarini funksional assimetriya bilan xarakterlanadi: til tushunchalarida tilga oid umumiy xulosalar tizimi va tafakkurni asosan miyaning chap yarim shari bilan, aniq-obrazli tafakkurni esa o'ng yarim shari bilan bog'laydi. Sensorli proeksion tizimlarning o'choq shikastlanishlari klinik jihatdan eshitish va ko'rish qobiliyati o'tkirligining susayishi yoki qabul qilinuvchi tovush chastotalari va ko'rish maydonining chegaralanganligi bilan bog'liq holda og'zaki va yozma nutqlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar orqali namoyon bo'ladi. Harakatlanuvchi proeksion tizimlarning shikastlanishi esa to'g'ri tuzilgan iboralarni ifodalovchi talaffuzga oid va prosodik vositalar buziladigan turli dizartriya orqali aniqlanadi. Qobiqning gnostik maydonlarining o'choq shikastlanishi nutqiy agnoziyalar ko'rinishlarida, qobiqning praksik maydonlari esa apraksiyalar ko'rinishida aniqlanishi mumkin. Nutqiy agnoziyalarda bemorlar yaxshi ko'radilar va eshitadilar, biroq ularning tilidagi nutq belgilarining tovushli belgisini, ya'ni nutqiy eshitishga oid agnoziyani yoki yozma matnlarning grafemalarini, ya'ni nutqiy ko'rishga oid agnoziyani taniy olmaydilar. Ayni vaqtda bu bemorlarda fonologik, grammatik va leksik umumlashtirish qobiliyati saqlanib qolgan va bu gapirish va yozish qobiliyatining saqlanib qolganligida namoyon bo'ladi. Bu holatda nutqiy eshitish agnoziyasiga chalinganlar o'qiy oladilar, nutqiy ko'rish agnoziyasiga chalinganlar esa og'zaki nutqni tushunadilar. Nutqiy apraksiyalarda esa teskari manzara aks etadi, ya'ni ular so'zni talaffuz etish yoki uni yozishni bilmaydilar, lekin atrofdagilar nutqini tushunish va o'qish qobiliyati saqlanib qoladi.

Neyrolingvistik tadqiqot usullari nevrologiya va lingvistika nazariyalarning rivojlanishi bilan parallel tarzda rivojlanadi va o'zgarib boradi.

Lingvistik jihatlarni davolashga ko‘chirish ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim, chunki nutqiy xulqning tashqi sifatlariga ko‘ra aynan bir xil ko‘rinishlari, tizimli tashkillashtirilgan miya faoliyatidagi tamomila turlicha psixolingvistik shikastlanishlar natijasi bo‘lishi mumkin. Faqatgina A.R. Luriya tomonidan amaliyotga tadbiiq qilingan, buzilgan funksiyaning tizimli o‘rganilishi uning tilga oid tabiatini tushunishga olib kelishi mumkin. Nevrologiya va lingvistika natijalariga tayanuvchi, nutqiy buzilishlarning tabiati haqidagi majmuaviy tasavvurlarga asoslangan bu kabi tadqiqot eng samarali tadqiqot hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rish mumkinki, jamiyatning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan oraliqdagi neyrolingvistika fani nutqdagi kamchiliklarni o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Nutqdagi kamchiliklar esa kasallikning turiga, shikastlanish darajasiga qarab turlicha bo‘ladi.

I bob. Afaziya va uning turlari

Kishilar o‘rtasidagi muomalaning asosiy₁₁ vositasi nutq hisoblanadi. Inson nutqi

yordamida o'z fikrini, his-tuyg'ularini izhor qiladi hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi. Bu nutqiy faoliyat og'zaki va yozma tarzda amalga oshiriladi. Jamiyatda ko'ramizki, nutqida nuqsoni bor insonlar ko'p uchraydi. Nutqdagi nuqsonlarni neyrolingvistikaning yo'nalishlaridan biri bo'lgan afaziologiyada ko'rib chiqamiz. Klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miya faoliyatining buzilishi nutq faoliyatining buzilishiga olib keladi. Nutqdagi bu kamchiliklar esa, albatta, tilning barcha jihatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Afaziya – bu bosh miyaning shikastlanishi natijasida nutqni to'liq yoki qisman yo'qotishdir. Afaziya (yunoncha a - inkor qo'shimchasi, fasis –nutq, ya'ni gapira olmaslik, so'zlash qobiliyatining buzilishi). Afaziyaga bosh miya po'stloq qavatidagi so'zlashish markazining o'zgarishi sabab bo'ladi. Nutqiy kamchiliklarni o'rganuvchi soha afaziologiya bo'lib, keng tadqiqotlar olib borilgan sohalaridan biri hisoblanadi. O'ng qo'lda yozadiganlar va ish qiladiganlarda nutqiy zonalar chap yarimsharda joylashgan bo'ladi. Shunday ekan afaziologiya chap yarim sharning tadqiqi bilan shug'ullanadi.⁷ Afaziya nutqiy organizmlarning buzilishi yoki bosh miya po'stlog'i ostidagi nerv markazlarining buzilishi, bosh miyada shishning , jarohatlanishning, insult, yallig'lanish jarayoni hatto alkohol, qattiq toliqish, qo'rqinch va shunga yaqin bir qancha psixik kasalliklar natijasida vaqtincha miya buzilishi inson nutqiga ta'sir ko'rsatadi. Afaziyani Verniki, Lextgeym, Luriyalar atroflicha tasnif etganlar. Ayniqsa Luriya tomonidan qilingan tasnifi rus afaziologiyasida keng o'rganilgan.

Agar miyadagi nutqiy zonalarining hammasi shikastlansa , total afaziya yuzaga keladi va bunday holda nutq umuman yo'qoladi. Miyaning nutqiy zonalardan biri shikastlansa, qisman afaziya vujudga keladi va bunda nutqni tushunish imkoniyati bo'ladi. XX asr boshlarida afaziya muammolari, uning dinamikasi, aql-idrokka asoslangan qayta tiklovchi ta'lim va nutq nuqsonlarini o'z-o'zidan o'zgarishiga bo'lgan qiziqish ortib ketdi. Ko'p tadqiqotchilar afaziyani o'rganishni, uni yengib o'tish usullarini, uning dinamikasini bilimlarning mustaqil sohasi afaziologiyaga

⁷ Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга – М, 1969.

umumlashtirish fikrini ilgari suradilar. Ko'p mamalatlarda tibbiy muassasalarda va shu bilan birga alohida ixtisoslashtirilgan markazlarda afaziyaga chalinganlarda nutqni qayta tiklash bilan shug'ullanuvchi laboratoriyalar soni ortib bormoqda. Bu nuqsonlarni yengib o'tish bo'yicha muntazam ravishda tadqiqotlar olib borish tadqiqotchilar uchun uzoq vaqt davomida afaziyada nutq holatini kuzatish imkonini berdi va afaziya holatidagi nutq o'zgarishini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Tadqiqotchilar afaziya holatida nutqning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillarni ko'rsatib o'tadilar, biroq ularning barchasi miya shikastlanishining mahalliyashtirilishi va hajmi, bemorning yoshi va ta'lim darajasi, buzilishlarning dastlabki darajasi va afaziya turiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Ikki yuz yildan beri olib borilayotgan afaziyani o'rganish tadqiqotlari, nevrologiya va psixologiya, logopediya va neyropsixologiyaning qadimiy o'zgarish muammolaridan biri hisoblanadi. Bu mavzu ko'plab adabiyotlarda yoritilgan, unga bag'ishlangan yuzlab maqolalar, monografiyalari va darsliklar chop etilgan. Ushbu muammoni o'rganishga bo'lgan qiziqishning o'tib ketmayotganligi tasodif emas, chunki ushbu murakkab hodisani o'rganish psixologiya va neyropsixologiya, nevrologiya va defektologiya, lingvistika va psixolingvistikalarning ko'plab fundamental metodologik va nazariy masalalarini anglashga keng yo'l ochib beradi. Afaziyaga bo'lgan qiziqish va davom ettirilayotgan tadqiqotlar diagnostik va reabilitatsion amaliyot talablari bilan ham bog'liq. Afaziya klinikasi o'zi haqida aniqroq va ko'proq ma'lumotlarni, afaziyani diagnostika qilish va uni yengib o'tishga qaratilgan samarali ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etadi. Afaziyani o'rganish, nomlari XIX asr nevrologlari, psixiatrlari, lingvistlari, anatom va fiziologlari, keyinroq XX asr psixologlari va neyropsixologlari, defektolog va logopedlari darsliklari va monografiyalari varaqlaridan tushmayotgan, butun dunyoga mashhur olimlar bilan bog'liq. Masalan, Gall, Dakslar (ota va o'g'il), fiziolog Flurens kabi vrachlarning asarlari keng tanilgan. XIX asr oxirida tadqiqotlar olib borgan P.Broka, K.Vernike, Dj.Djekson, L.Lextgeym, K.Klayst, A.Pik, P.Mari kabi olimlarning asarlari muhim ahamiyatga ega. XX asr boshlari va 13-o'rtalarida rus nevrologlari

V.M.Astvatsaturov, A.Kojevnikoa, V.M.Bexterov, V.V.Bolotov va boshqalarning asarlari keng tarqaldi. Soʻngra L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, S.L.Rubinshteyn, V.M.Kogan, M.S.Lebedinskiy, E.S.Beyn kabi mashhur psixologlar, M.B.Krol, F.V.Bassin, L.Stolyarova, N.N.Traugott, V.K.Orfinskaya kabi mashhur klinitsistlar ushbu muammoga eʼtibor qaratdilar. Afaziyaning hozirgi kunda eʼtibor markazida boʻlgan ilmiy dissiplinalar roʻyxatining oʻziyoq oʻz davrida uzoq muhokamalardan soʻng “afemiya” va “alaliya” yoki hozirgi kunga qadar Fransiyada “afaziya” atamasi oʻrniga qoʻllaniluvchi “anartriya” atamalari oʻrniga qabul qilingan “afaziya”ning bir xil emasligi murakkabligidan dalolat beradi. Mamlakatimiz va chet el afaziologiyasida afazik buzilishlarni sinflarga boʻlishning turli tizimlari mavjud. Ularning orasida eng koʻp tarqalgani A.R.Luriyaning tasnifidir. Ushbu tasnifga muvofiq afaziyalarning quyidagi koʻrinishlari mavjud:⁸

1. Motor afaziya
2. Sensor afaziya
3. Amnestik afaziya
4. Akustik- mnestik afaziya

Bilamizki, oʻta murakkab funksional tizimni aks ettiruvchi inson miyasining biri miya qobigʻining ishini taʼminlovchi va uzoq muddat davomida tanlash faoliyati turlarini amalga oshirishni, boshqasi maʼlumotni olish, qayta ishlash va saqlashni va uchinchi kechayotgan faoliyatni dasturlash, tartibga solish va nazorat qilishni taʼminlovchi uch asosiy bloklarning doimiy ishtiroki asosida ishlaydi. Oʻzini tutishning har bir harakati – aniq maqsadga yoʻnaltirilgan harakat, qabul qilish, eslab qolish yoki tafakkur qilish jarayoni – garchi ularning har biri zaruriy jarayonning oʻziga tegishli boʻlgan qismini taʼminlasa-da, ushbu uchta funksional bloklarning birgalikda olib boradigan harakatiga tayanadi. Bu dalillar miyaning jarohatlar, oʻsmalar yoki mahalliy qon quyilishi sababli yuzaga keladigan u yoki

⁸ Лурия А.Р. Травматическая афазия – М, 1947

bu qismlarining mahalliy shikastlanishi natijasida paydo bo'luvchi o'zgarishlarni tizimli tarzda o'rganish natijasida aniqlangan bo'lib, har bir blokning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Birinchi blok apparatlarining (miyaning o'zak qismlari, medial qobiq yoki limbik sohalar apparatlari) shikastlanishi qobiq tonusining modal-spetsifik pasayishiga olib keladi va psixik faoliyatning tanlovchi, selektiv kechishini imkonsiz holga keltiradi yoki juda murakkablashtiradi.

Ikkinchi blok apparatlarining (chap chakkaning ikkilamchi qismlari yoki boshning tepa-gardan qismi) shikastlanishi ma'lumotni qabul qilish va qayta ishlash uchun zarur bo'lgan sharoitlarni jiddiy ravishda buzadi va bu buzilishlarning har biri modal-spetsifik (ko'rishga, eshitishga oid, kinestetik-maydonga oid) buzilishlarga olib keladi. Bu apparatlarning chap miya qismi shikastlanishi ma'lum ma'lumotni til yordamida qayta ishlash imkoniyatini cheklab qo'yadi.

Uchinchi blok apparatlarining (miyaning peshona qismi) shikastlanishi qobiqning umumiy tonusini o'zgartirmagan va ma'lumotni qabul qilishning asosiy shartlariga dahl qilmagan holda, istaklar paydo bo'lish jarayonini, harakatlarni dasturlashni qiyinlashtirgan holda ma'lumotni faol qayta ishlash jarayonini buzadi, ularni boshqarish va bu jarayonlarning kechishini qat'iy nazorat qilishga to'sqinlik qiladi. Biz bir necha marotaba ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday fikr ma'lum sabab yoki nutqda ma'lum fikrni ifodalashni nazarda tutadi. Biroq biz yaxshi bilamizki, miyaning peshona qismlarining mahalliy shikastlanishida aynan shu funksiyasi jiddiy ravishda buziladi va bu shikastlanish keyingi faol harakatni dasturlash asosida yotuvchi maqsadning yuzaga kelish faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, bu holatlarda biz qat'iy maqsad va fikrni faol shakllanishini talab etmaydigan, nutqning takroriy va dialogik turlari asosida namoyon bo'luvchi fikrlarni faol shakllanishida jiddiy buzilishlar yuzaga kelishini kutishimiz mumkin. Shu sababli ayni shu holatlarda keng fikrlarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan sharoitlar yo'qolishini kutish mumkin. Takroriy, nominativ nutq saqlanib qolgan holda bu yerda ravon, keng ochib berilgan fikrning shakllanish jarayoni buziladi. Shunday holatlar mavjudki, ularda₁₅ miyaning boshqa bo'limlarining , ya'ni

chap chakka sohasining ikkilamchi bo‘limlari shikastlanishi mavjud. Miyaning boshqa bo‘limlarining shikastlanishi ushbu elementlarni faol izlash qobiliyatini saqlagan holda nutqning leksik elementlarini aniq tanlab olish qobiliyatining parchalanishiga va “so‘zlar ma’nosining begonalashishiga” olib keluvchi fonematik eshitish qobiliyatini buzilishiga olib keladi. Bu holatlarda yuzaga keluvchi fikrlarni shakllantirishning buzilishi umuman boshqa tabiatga ega bo‘lishini kutish tabiiy. Biz bilamizki, bosh miya chap yarim sharining tepa qismi va gardan qismlarining shikastlanishi simultan, ya’ni kenglikka oid sintezlarning buzilishiga olib keladi. Murakkab tizimlarda ma’lumotning alohida elementlarini tashkillashtirilishini keskin qiyinlashtiradi va murakkab mantiqiy-grammatik munosabatlarning shakllanishini buzadi. Tabiiyki bu kabi nuqsonlar fikrni shakllantirish va uni dekodirlashning umuman boshqa zanjirlarini buzilishiga olib keladi. Bu guruh afaziyaga chalinganlarining nutqiy muloqotida, yuqorida aytib o‘tilgan holatlardagidan keskin farq qiluvchi buzilishlar namoyon bo‘ladi. Bir qancha tadqiqotchilarning nazariyalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular afaziyaning 3 ta shaklga ega deb hisoblaydi.

Yuqorida keltirilgan uch blok asosida afaziya turlari va uning xususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tamiz

1.1. Motor afaziya

Motor afaziya inson miyasidagi Broka markazi shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Afaziyaning bu turida afaziyaga chalinganlar nutqni tushuna oladi, lekin gapirmoqchi bo‘lganda so‘zlarni topa olmasligi sababli gapira olmaydi. Motor afaziya bosh miya o‘ng yarim shar maydonini harakatga keltiruvchi a‘zolarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Harakatga keltiruvchi markaz Broka markazidir.

1861 yilda Polem Broka chap peshonaning pastki orqa uchdan bir qismi buramalarida “so‘zlar obrazini harakatlantiruvchi markaz” deb ataluvchi Broka markazini topdi va birinchilardan bo‘lib motor afaziya holatini ta’riflab berdi. Brokaning aynan shu kashfiyotidan so‘ng afaziyani sistematik tarzda o‘rganish boshlandi. Kussmaul birinchi bo‘lib₁₆ davolash-pedagogik psixoterapiya

asosida afaziyaga chalinganlarda nutqning sistematik qayta tiklanishini kiritdi. U, avvalambor, motor afaziya bilan kasallangan nutqsiz, ya'ni gapira olmaydiganlarni gapiruvchining lab harakatlarini kuzatishga o'rgatish lozim deb hisoblar edi va tovushlarni tartibli tashkillashtirish usullari tizimini va ularni bo'g'inli mashqlar va o'qitish metodikasiga kiritilgan so'zlar tarkibiga kiritishni tavsiya qildi. Kussmaul bu metodikani xuddi surdopedagog, ya'ni kar bolalarni o'qituvchi pedagoglar kabi "lablardan o'qish" yoki optik-taktil usul deb nomladi. Tadqiqotchilar motor afaziyaga chalinganlar nutqini qayta tiklash metodikalarini yaratdi. Turli olimlar qayta tiklashning turlicha metodlar ishlab chiqqan bo'lib, bular quyidagilardir:

Mills motor afaziyaga chalinganning nutqini "onalar usuli" yoki "fiziologik alifbo" yordamida qayta tiklanganligi holatini aniqladi. Keyinchalik Millsning takrorlashni qo'llashga asoslangan metodikasi birmuncha o'zgardi va fonetik, akustik, eshitishga oid metodika degan nomlarga ega bo'ldi. Shunday qilib, deyarli bir vaqtning o'zida afaziyada nutqni qayta tiklashda ikki xil metodikani, ya'ni optik-taktil va fonetik metodikalarni qo'llay boshladi.

Gutsmann 1901-yilda afaziyada qayta tiklash sohasida yig'ilib qolgan tajribalarni birinchi bo'lib umumlashtirdi. Keyinchalik 1924-yilda u motor afaziyada qayta tiklovchi ta'limning dastlabki bosqich metodikasini to'liq yoritib beradi va bunda u qayta tiklash ishlarini insultdan so'ng darhol emas, balki bir necha oy o'tgandan so'ng nutqiy funksiyaning o'z-o'zidan yaxshilanishining maksimal darajasiga erishilgandan so'ng boshlash zarur deb hisoblaydi.

Birinchi jahon urushi yillarida motor afaziya shakllarini guruhlashga urinishlar amalga oshirildi va afaziyaning turli ko'rinishlarida nutqni qayta tiklashning yangi yo'nalishi aniqlab olindi. Masalan, Reyxman va Reychau 1919-yilda apraksik motor afaziyada faqatgina optik-taktil usuldan foydalanish lozim, motor afaziyaning boshqa turlarida esa optik-taktil usul bilan birgalikda akustik usuldan foydalanish mumkin deb hisoblaganlar. Mualliflarning ta'kidlashicha, agar

avtomatlashtirilgan nutqiy qatorlardan foydalanilsa, motor afaziyaga chalinganlarda nutqning qayta tiklanishi osonlashadi.⁹

1922 yilda Elizberg birinchi marotaba motor afaziyaga chalinganlar bilan optik-taktil usulda emas, balki “so‘zlarni tushunchalarning turli qatorlariga kiritish” orqali, ya’ni ma’noviy so‘zlararo bog‘lanishlarni qo‘llash yo‘li bilan ishlashni tavsiya qiladi. Afaziya holatida qayta tiklash ishida optik-taktil usulning qo‘llanishini birinchi bo‘lib S.M.Dobrogaev 1925 –yilda to‘liq yoritib berdi. Uning hisobot-kundaligida ushbu usul bo‘yicha qayta tiklovchi ta’lim usuli to‘liq ishlab chiqilgan va aniq, lo‘nda qilib ifodalangan.

30-yillar sobiq sho‘rolar davri logopediyaning keng rivojlangan davri bo‘lgan. Bolalar logopediyasi amaliyotida optik-taktil usul haqli ravishda e’tirofga sazovor bo‘ldi. 30-yillarda va keyinroq bolalarda nutqni eshitish tomonining buzilishi va turli ko‘rinishdagi anomaliyalarning muhim jihati R.M.Boksis va R.E.Levina tomonidan 1936 – yilda , R.E.Levina tomonidan 1940-yilda ochib berildi. Sekin-asta logopediya izchil bilimlar tizimiga, bolalar nutqida uchraydigan turli ko‘rinishdagi nuqsonlarning deyarli barcha turlarini qamrab oluvchi fanga aylandi. Bolalar logopediyasining qator holatlari keyinchalik afaziyaga chalinganlarda nutqni qayta tiklashga logopedik yondashuvni rivojlantirishda muvaffaqiyatli qo‘llanilib bordi. Bu birinchi navbatda kattalardagi nutqiy buzilishlarni tahlil qilishda fonologik nazariyani qo‘llanilishiga tegishlidir.

Afaziya haqidagi ta’limotni rivojlantirishning yangi bosqichi va qayta tiklash ishlarining usullarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar 40-yillarga tegishlidir. Qayta tiklovchi ta’lim psixologlar A.R.Luriya, B.G.Ananeva, E.S.Beyn, V.M.Koganlarning diqqat e’tiborini jalb qildi. Sovet psixologlarining bir nechta jamoalari va ularning rahbarligida ishlagan logopedlar qayta tiklash ta’limoti usul va metodikalariga muhim hissa qo‘shdilar. Ayni shu yillarda motor afaziyada nutqni qayta tiklash usullari va ularni tahlil qilishga bag‘ishlangan qator ishlar paydo bo‘la boshladi.

⁹ vv vv vv. Google. ru // Нейролингвистика 18

O.P.Kaufman 1947 -yilda motor afaziyaga chalinganlarda ichki nutqning parchalanib ketish holatini aniqlay turib, optik-taktil usuldan foydalanishni tavsiya qiladi. Keyinchalik, afaziyaga chalinganning lug'at boyligi tiklanishi asosida O.P.Kaufman xuddi boshqa mualliflar kabi ishni "telegraf usuli"dagi agar matizimni davolashdan boshlashni taklif qiladi. Buning uchun esa gapning ko'rgazmali sxemalari va matnda tushirib qoldirilgan so'zlarni to'ldirish usullaridan foydalaniladi.

L.S.Vigotskiyning o'quvchisi Aleksandr Romanovich Luriya afaziyalarning turli ko'rinishlari, ya'ni bosh miya qobig'ining turli psixik funksiyalarga javob beruvchi turli zonalarining buzilishi bilan bog'liq markaziy miyadan kelib chiquvchi nutqiy buzilishlarni diagnostika qilish, o'rganish va qayta tiklash ishlariga katta hissa qo'shdi. Agar A.R.Luriyaga qadar afaziyani o'rgangan tadqiqotchilar til birliklari va konstruksiyalarining psixologik haqiqiyliги nuqtayi nazaridan yondashgan bo'lsalar, A.R.Luriya bu buzilishlarni birinchi marotaba nutqiy operatsiyalar buzilishlari sifatida tahlil qila boshladi. U o'zining 1947 yilda yozgan "Shikastlanishga oid afaziya" kitobida afaziyaning psixolingvistik konsepsiyasini quradi, jumladan, "keyinchalik tashqi nutqqa aylanib ketadigan mulohazalarning ichki sxemasi" haqidagi tushunchani kiritadi. ¹⁰A.R.Luriyaning qator monografiyalarida nutqiy funksiyalarni qayta tiklash bo'yicha orttirilgan tajribalar to'plangan. A.R.Luriya motor afaziyaga chalinganlarda nutqni qayta tiklash ta'limining uch bosqichda o'tadigan batafsil metodikasini keltirib o'tadi.

Birinchi bosqich – bo'g'in va so'z sxemasi bilan ishlash, tovushlarni optik-taktil usul yordamida qurish, predmetlar va predmetli rasmlarni nomini aytish yoki takrorlash orqali ularni bo'g'inlarga kiritish va so'zlarda mustahkamlash. Bu bosqichda so'z tarkibidagi tovushlarning turli-tumanligiga tayangan holda so'z va bo'g'inlarni qayta tiklashga alohida e'tibor qaratiladi.

Ikkinchi bosqich –so'zning morfologik va semantik tomonlarining tahlili ustida ish olib borish.

¹⁰ Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга – М, 1969.

Uchinchi bosqich – fikrning grammatik tuzilmasini qayta tiklash, ya'ni gap, sujetiga oid rasmlar sxemasiga tayangan holda agrammatizmni siqib chiqarish.¹¹

B.G.Ananev rahbarligida Tibilisi va Leningradda psixologlar va pedagoglar guruhi afaziyaning turli ko'rinishlarida nutqni qayta tiklashning o'zgacha metodikalarini ishlab chiqdilar. B.G.Ananev va S.N.Astaxov 1946-1947- yillarda sabab optik maydonga oid buzilishlarda deb hisoblagan, literalagrafiyal motor afaziyaga chalinganlarni davolashda konstruktiv-analitik metodikani qo'llashni taklif etadilar.

V.K.Orfinskaya motor afaziyaga chalinganlarda nutqni qayta tiklash maqsadida optik-konstruktiv, ya'ni konstruktiv-analitik-optik-taktil usulni, shuningdek, asosida muvofiq ravishda artikulyatsion sxemalar bilan mustahkamlangan, tovushlarni uch marotaba takrorlab talaffuz etib, yotuvchi "fonologik metodika"ni qo'llagan.

Afaziyaga chalinganlarning so'z boyligini qayta tiklash maqsadida suffikslar, perfikslar va boshqalar yordamida so'z tuzish ustida ishlar olib borilgan. Keyinchalik fe'llar bilan ishlash va gapni shakllantirish bo'yicha ishlar olib borilgan. N.P.Serebryanikovaning 1948-yilda e'lon qilingan maqolasi e'tiborni tortadi. U ham B.G.Ananev kabi "telegraf usuli"dagi assigmatizmni motor afaziyaga chalinganlarda harakatlanuvchi faoliyat me'yoriy formalarining buzilishi bilan bog'laydi.

V.M.Koganovning va boshqa mualliflarning nuqtai nazarlariga asoslanib L.S.Svetkova nutqning buzilgan harakatlantiruvchi tomonini alohida tovushlarni erkin ravishda talaffuz etishning maxsus usulisiz, so'zlarni ma'noli kontekstlarga kiritish orqali qayta tiklashni tavsiya qiladi. L.S.Svetkovaning tadqiqotlarida qayta tiklash ta'limining ikki bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi bosqichida afferent kabi efferent motor afaziyaga chalinganni alohida so'zlarni takrorlash, nomlash, yozish va o'qishga o'rgatadilar. Ikkinchi bosqichning vazifasi afaziyaga chalinganning iborani tuzish va talaffuz etishga yordam beruvchi turli xil tashqi moddiylashtirilgan tayanchlarni qo'llash orqali iborani talaffuz etish qobiliyatini

¹¹ Лурия А.Р. Травматическая афазия – М, 1947

qayta tiklashdan iborat.¹² Bilamizki, motor afaziyada ogʻzaki nutqning yoʻqolishi hodisasi uchraydi. Motor afaziyaning ikki shaklga boʻlish mumkin:

1. Afferent motor afaziya

2. Efferent motor afaziya

Motor afaziyaning bu ikki shakli oʻziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Afferent motor afaziyada afziyaga chalinganlar tovushlarni chalkashtirib, yaʼni bir-biridan farqlanadigan, ammo qaysidir jihatlari bilan bir guruhga mansub tovushlarni almashtirib qoʻllaydi. Bunda afaziyaga chalinganlar tovushlarni talaffuz qilish qobiliyatini yoʻqotadi. Efferent motor afaziyaga chalinganlar alohida-alohida tovushlarni oson talaffuz qiladi, lekin soʻz va iboralarni talaffuz qilayotganda biroz qiyinchiliklarga uchraydi. Bunda soʻz va iboralarni talaffuz qilishda tutilib –tutilib talaffuz qiladi.

Afferent motor afaziya

Afferent motor afaziya orqa markaziy va bosh miya poʻstlogʻining tepa qismi shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Afferent motor afaziya (*afferent* – olib kiruvchi, *afferentlar* – asab tugallanmalari). Afferent uchun tovushni tanlash zanjirining buzilishi xosdir.


Shuning uchun afaziyaning bu turi tovushlar tarkibini buzilishi kabi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Dastlabki davri nutq organlariga yaqin koʻrib boʻlmaydigan kamchiliklarni oʻz ichiga oladi. Nutqiy buzilishning bu turida soʻzlar ular yozilgandagi kabi talaffuz etilmaydi. Ular talaffuzda tovushlarni almashtirib talaffuz qiladi. Bunda nutq organlari harakatining buzilishini sezish mumkin. Asosiy kamchilik soʻzlarni aniq va toʻgʻri talaffuz qilish imkoniyati yoʻq. Bunda ogʻzaki nutqda tartibsizlik vujudga keladi va motor afaziyaga chalinganlar nutqini tushunish qiyin boʻladi. Ogʻir holatlarda oʻz-oʻzidan paydo boʻluvchi nutq umuman yoʻqolib qolishi, dialogik nutqi esa qoʻpol ravishda buzilishi va exolaliya bilan (*echo* – aks ettirilishi, *lalia* - nutq), yaʼni suhbatdoshning soʻzlarini oddiy takrorlash. Ayrim hollarda bu exopraksiya bilan birga kechadi, yaʼni inson suhbatdoshi ortidan mexanik ravishda harakatlarni takrorlaydi Masalan,

¹² Цветкова А.С. Проблемы афазии и восстановительного обучения I том. – М, 1975

Afaziyaga topshirilgan chalinganga aytilayotgan soʻz	Afaziyaga chalingan aytayotgan soʻz
<i>Xalat</i>	<i>Xanat, xadat</i>
<i>Dom</i>	<i>Lom, tom</i>
<i>Papa</i>	<i>Mama</i>
<i>Xvost</i>	<i>Gvozd, kost, trost</i>

Afferent motor afaziyada odatda oral va artikulyatsion praksisning buzilishi kuzatiladi. Ixtiyoriy oral harakatlarning kinestetik afferentatsiyasining buzilishi markaziy buzilish hisoblanadi. Bemorlar til, lab va boshqa talaffuz organlari yordamida harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini yoʻqotadilar. Ixtiyoriy ravishda bu harakatlar ular tomonidan oson bajarilishi mumkin, chunki oral harakatlar hajmini chegaralovchi falajlikning yengil formasi yoʻq. Bu oral apraksiya deb nomlanadi. Oral apraksiya nutqning tovushlarini talaffuz etishga bevosita bogʻliq boʻlgan artikulyatsion apraksiyaning asosida yotadi. U alohida artikulyatsion holat yoki boshqacha qilib aytganda talaffuzning parchalanishida namoyon boʻladi. Bemorlarning ogʻzaki nutqida apraksiyaning dagʻalligi darajasi bilan bogʻliq holda u quyidagilarda namoyon boʻladi:

- Artikulyatsiyalangan nutqning yoʻqligida;
- Holatlarni buzib talaffuz qilishda;
- Artikulyatsiya izlashda.




AFFERENT MOTOR AFASIYA

Bemorlar ayrim vaqtlarda faqatgina oddiy oral pozalarni o'xshatishnigina eplay oladilar, biroq ularni og'zaki buyruqlar asosida ko'p hollarda amalga oshira olmaydilar. Til va lablarning tartibsiz harakatida namoyon bo'luvchi pozalarni qidirish kuzatiladi. Artikulyatsion apraksiya afaziyaning ushbu turining birlamchi nuqsoni hisoblanadi va butun sindromning "o'zagi"ni tashkil qiladi. Afaziyaga chalinganlar artikulyatsiyasiga ko'ra yaqin bo'lgan tovushlarni aralashtirib yuboradilar, har doim ham ularni akustik namuna asosida takrorlay olmaydilar. Ko'pincha bemorlarda hattoki unli tovushlarni takrorlashda ham qiyinchiliklar yuzaga keladi. Fonemaning artikulyatsion obrazini ko'ra olishga tayanish vazifani birmuncha osonlashtiradi.

Efferent motor afaziya

Efferent afaziya – (*efferents* – chiqaruvchi; efferentlar – reflektorli yoyning yakuniy qismi) birinchi marotaba 1861 yilda P.Broka tomonidan ta'riflangan. U miya chap yarim sharining premotor qobig'ining pastki qismlarining shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Fikr bildirish grammatikasini parchalanishiga va nutqiy stereotiplarning inertligi oqibatida bir so'z yoki bo'g'indan boshqa so'z yoki bo'g'inga o'tishning murakkabligiga sabab bo'ladi.¹³

¹³ Белянин В. Г. Психоллингвистика. – М.: Флинта: Московский психолого- социальный. 2003.



EFFERENT MOTOR AFAZIYA

Me'yoriy holatida u bitta oral yoki artikulyatsion harakatning boshqasi bilan ravon almashinuvini ta'minlaydi. Bu esa artikulyatsiyalarning suksessiv ketma-ketlikda tashkillashtirilgan qatorlarga, ya'ni A.R.Luriyaning nomlashiga ko'ra "kinetik harakatlantiruvchi musiqaga" birlashishi uchun zarur.¹⁴ Harakatlantiruvchi zonalarning o'choqli shikastlanishida artikulyatorli harakatlarning patologik inertligi yuzaga keladi. Bir artikulyatsion pozadan ikkinchisiga erkin o'tishga to'sqinlik qiluvchi perservatsiyalar paydo bo'ladi. Buning natijasida afaziyaga chalinganlar nutqi uzuq-yuluq bo'lib boradi. Iboraning alohida parchalarining tutilib qolishi bilan kechadi. Nutqning talaffuz etiladigan tomonining bu kabi nuqsonlari nutqiy funksiyaning boshqa tomonlarining ham tizimli buzilishlariga sabab bo'ladi: o'qish, yozish, qisman nutqni tushunish. Shunday qilib, artikulyatsion apraksiyalar ayrim jihatlargagina tegishli bo'lgan afferent motor afaziyadan farqli ravishda, efferent afaziyada u ularning seriyalariga tegishli bo'ladi. Afaziyaga chalinganlar alohida tovushlarni nisbatan osonroq talaffuz etadilar, biroq so'z va iboralarni talaffuz qilishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Motor afaziyaning bu shaklida alohida tovushlarni talaffuz qila oladi, lekin so'z va iboralarni talaffuz qilayotganda bir tovush talaffuzidan ikkinchi tovush talaffuziga o'tayotganda qiynaladi. Buning natijasida o'z fikrini, ya'ni so'zlarni, gaplarni uzuq-uzuq holda talaffuz qiladi.

.

1.2.Sensor afaziya

Sensor afaziya yoki Vernike afaziya asosida fonematik eshitish qobiliyatining buzilishi, so'zlarning tovush tarkibining ajratilishi yotadi. U miya chap yarim sharining chakka buramasining orqa uchdan bir qismining shikastlanishi natijasida yuzaga keladi.

¹⁴ Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики – М, 1975.



Unda soʻzlar tarkibidagi tovushlarni farqlay olmaydi. Buni kuzatganda afaziyaning bu turi akustika- gnostika afaziyaga yaqin boʻlib, nutqning tovushga oid jihatlarini tushunish qobiliyatini yoʻqotadi. Sensor afaziya inson miyasidagi Vernike zonasi shikastlanganda yuzaga keladi. Bu nutqiy zona nemis olimi K. Vernike tomonidan 1874-yilda aniqlangan. Vernike markazi shikastlansa, akustik afaziya yuzaga keladi. Bunda afaziyaga chalingan gapira oladi, ammo oʻzgalar nutqini tushunmaydilar. Afaziyaning bu turi sensor afaziya deb nomlanadi. Unda “fonematik eshitish qobiliyati” buziladi. Ular soʻzlarni eshitib boʻlmaydigan shovqindek qabul qiladi va maʼnosini tushunmaydi. Ular tovushlarni eshitadi, lekin ularni ajrata olmaydi. Bu esa soʻzlarning notoʻgʻri talaffuz qilinishiga, yozish qobiliyatining buzilishiga olib keladi. Bu afaziya turida nutqni tushunishdagi kamchiliklar insult yoki travmadan keyingi erta bosqichda nutqni tushunishning butunlay yoʻqolishi kuzatiladi. Sensor afaziyaga chalinganlarning har doim ham oʻzlarida mavjud nutq kamchiligini anglab yetmasligi atrofida gilar nutqini tushunmaslik va aniq harakat buzilishining yoʻqligiga olib keladi. Keyingi bosqichda nutqni qisman tushunmaslik, soʻzni aniq idrok qilishni farazlar bilan almashtirish kuzatiladi. Bunda soʻzlar bir xil eshitiladi. Sensor afaziyaga chalinganlar qoʻshimchalarning tovush tarkibi bir xil va ular nutq oqimida har xil oʻzakli soʻzlarning tovush tarkibiga qaraganda tez-tez qaytarilishi sababli soʻzning oʻzak qismi, yaʼni leksik-semantik qismi qiyinchilik bilan oʻzlashtiriladi, buning natijasida predmetning oʻzaro munosabati buziladi.


Sensor afaziya akustik- gnostik afaziyadan farqli ravishda bunda akustik nuqson fonematik tahlil sohasida emas, balki eshitish mnestik qobiliyatida namoyon boʻladi. Afaziyaga chalinganlar eshitish orqali qabul qilingan maʼlumotni eslab qolish qobiliyatini yoʻqotadilar, bu bilan esa akustik izlarning zaifligini namoyon etadilar. Shu bilan bir qatorda ularda eslab qolish hajmining torayishi ham kuzatiladi. Ushbu nuqsonlar eshitish va eslab qolish xotirasining ishtirokini talab etuvchi ochib berilgan matnlarni tushunishda maʼlum qiyinchiliklarga olib keladi. Bu koʻrinishdagi afaziyaga₂₈chalinganlarning shaxsiy nutqida

afaziyaning asosiy simptomi: soʻzlarning ushbu semantik toʻpning boshqa soʻzlari bilan bogʻliqliklari, ikkilamchi qashshoqlashuvi bilan bogʻliq soʻz boyligining kamligi, predmet haqidagi yetarli boʻlmagan koʻrishga oid tasavvurlarning kamligi hisoblanadi.

Akustik-mnestik afaziya – bu nutqiy maʼlumotni ushlab qolish hajmining buzilishi, eshitish va nutqqa oid xotiraning tormozlanishidir. U chap chakkaning oʻrta qismlarining shikastlanishida yuzaga kelishi mumkin. Bu uzun, besh-ettidan ortiq soʻzlardan tashkil topgan koʻp boʻgʻinli gaplarni tushunishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Bunda eshitib saqlab qolish qobiliyati toʻxtab qolishi yoki hajmi torayishi mumkin.

Optik-mnestik afaziya – bu koʻrib eslab qolish xotirasining buzilishi, soʻzlar obrazini koʻrishning susayishidir. Predmetlar va ularni nomlanishini, harakatlarni nomlanishini osonligini saqlangan holda, qiyinchiliklarni yuzaga kelishida namoyon boʻladi. U miya chap yarim shari chakka qismining orqa ostki qismining shikastlanishida yuzaga keladi. Soʻzning shaklini koʻrib saqlab qolish kuchsizlanadi va bunga soʻzning qiyin ekanligini sabab qilib koʻrsatadi. Afziyaning bu shakli va vernike afaziya amnestik afaziya doirasida oʻrganiladi. Bu shakllarning har biri bir xil taʼriflanadi.

Amnestik afaziya - bosh suyagining chakka tepa qismi atrofi shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Kamchiligi ular narsalarning nomlarini qiyinchilik bilan saqlab qoladi. Afaziyaga chalingan boʻlsa ham, ularning maʼnosini biladi va ishlata oladi. Masalan, koʻrinishga kelgan afaziyaga chalinganga kalit koʻrsatilsa, ularni nomlay olmaydi, lekin javob beradi. Bu nima deb soʻralganda hech boʻlmaganda kalit ochiq yoki yopiq deya aylanma harakat qiladi. Amnestika kuchli taʼsir koʻrsatishi natijasida ogʻzaki parafaziya yuz beradi.



AKUSTIK - MNESTİK AFAZIYA

1.3.Semantik afaziya

Semantik afaziyaning asosida nutqni simultan tahlil qilish va uni sintez qilish yotadi. U miya chap yarim sharining yuqori chakka, gardan qismlarining uchlamchi zonalarining shikastlanishida yuzaga kelishi mumkin. Semantik afaziya – bu grammatik murakkab iboralar ma’nosini anglash, fleksiylar yordamida ifodalanuvchi soʻzlar oʻrtasidagi munosabatlar, atributiv konstruksiyalar buzilishi bilan xarakterlanuvchi simptom majmuyidir. Alohida soʻzlar tushuniladi, biroq ularning birikmalari emas. Old qoʻshimchalarni va buning natijasi sifatida ularni amalga oshirish uchun kenglikka oid munosabatlarni tushunish zarur boʻlgan harakatlarni tushunishda qiyinchiliklar tugʻiladi. Sabab va oqibat bogʻlanishlarini, shuningdek, ravishdosh va sifatdosh oborotlarni aks ettiruvchi murakkab sintaktik konstruksiyalarni tushunishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.


Afaziya chalinganlarga aytilayotgan soʻz	Afaziya chalinganlar aytayotgan soʻz
Ota	Akamning otasi
Aka	Otamning akasi

Qalamni vilkaning oʻng tarafiga va ruchkaning chap tarafiga qoʻying.

Kolya Mishadan baland va Vasyadan past. Ularning qaysi biri eng baland

Umuman afatiklar nutqi leksikaning qashshoqligi bilan xarakterlanadi, ular juda kam hollarda sifatlardan, ravishlardan, taʼriflovchi oborotlardan foydalanadilar, maqol va matallardan umuman foydalanmaydilar va ularni umuman tushunmaydilar.

Afaziyaning bu turidagi nutqiy patologiyaning asosiy ifodasi impressiv agrammatizmdir, yaʼni nutqning murakkab mantiqiy-grammatik qoliplarini tushunish qobiliyatining yoʻqolishidir. Ushbu nuqson odatda, maydonga oid gnozising umumiy buzilishining, aynan, simultan sintezga boʻlgan qobiliyatning turlaridan biri hisoblanadi. Jumlag oʻid nutqda soʻzlarni yagona umumiylikka birlashtiruvchi asosiy “qismlar” sifatida₃₁soʻzlarning grammatik



SEMANTİK AFAZIYA

elementlari xizmat qilar ekan, bemorlar uchun asosiy qiyinchilikni ushbu elementlarni matndan ajratib olish va ularning ma'noviy o'rnini, ayniqsa makonga oid old ko'makchilar, ravishlar o'rnini ajratib olishdan iborat bo'ladi. Biroq bunda afaziyaga chalinganlarda rasmiy-grammatik xatoliklarni payqay olish qobiliyati saqlanib qoladi.


Dinamik afaziya nutqiy fikrning ketma-ket tashkillashtirilishining buzilishida namoyon bo'ladi. U ichki nutq nuqsonlari va nutqni rejalashtirish zanjiridagi buzilishlar bilan bog'liq. Dinamik afaziyaga nutqning motor va sensor komponentlarining nisbatan saqlanganligi holatida ravon fikrni qurishdagi murakkabliklar xosdir. U miya chap yarim shari qobig'ining o'rta va orqa peshona qismlarining shikastlanishida yuzaga kelishi mumkin. Bemor so'zlarni takrorlashi, nutqni tushunishi mumkin, biroq unda iboralar bilan gapirish qobiliyati buzilgan, ravonlik yo'q. U umumiy maqsadni nutqiy fikr qolipiga qayta joylashtira olmaydi, o'z nutqini rejalashtira olmaydi. Asosan otlar yordamida gapiradi (telegraf usuli). Harakatni belgilovchi so'zlarni faollashtirishda qiyinchiliklar mavjud. Hattoki eng oddiy matnni hikoya yoki ertakni qila turib ham, qiyinchiliklarga uchraydi. Bunda bemor uzuq-yuluq iboralar bilan gapiradi.

Mana...xo'jayinning tovug'i bor edi...va oltin tuxumla...va u uni o'ldirdi...mana.

A.R.Luriya motor afaziya bilan bir qatorda dinamik afaziyani ham ajratib ko'rsatishni taklif qilgan. Dinamik afaziya bilan kasallangan bemor alohida gaplarni yaxshi qura oladi, biroq katta ravon matn qurish strategiyasini yo'qotib qo'yadi. Bu unda miyaning eng yangi sohalari buzilganligini anglatadi. Bunday bemorlar talaffuz eta oladigan ravon fikrlar odatda oddiygina qayta takrorlanuvchi, andozali so'zlardan iborat. Quyida A.R.Luriya tomonidan keltirilgan misollar.

Bemorlardan biriga "Shimol" mavzusida og'zaki bayon tuzish vazifasi berilganda u uzoq sukutdan so'ng "Shimolda ayiqlar bor...", dedi. So'ngra yana ancha vaqt o'tgandan so'ng dedi: "...shuni sizga ma'lum qilib qo'ymoqdaman". Boshqa bemor esa oddiygina M.Y.Lermontovning₃₃she'ridan iborani o'qib berdi: "Yovvoyi

shimolda yalang‘och cho‘qqida yolg‘izlikda qarag‘ay turibdi”.



Bemor qandaydir kengaytirilgan matnni bayon qila turib uni nutq tugʻilishi jarayonida qurmaydi, balki uni yodlab olingan yaxlit blok holatida talaffuz etadi.

Dinamik afaziya “Brok zonasi”ning old tarafida joylashgan miyaning chap yarim sharining orqa chakka qimlarining shikastlanishi bilan bogʻliq.

Bu erda nutqiy nuqson asosan nutqiy oʻz-oʻzidan emas va faol emaslikda namoyon boʻladi. T.V. Axutina dinamik afaziyaning ikki turini ajratib koʻrsatgan.

Birinchi turi nutqning dasturlash funksiyasining buzilishi bilan ifodalanadi, bunda afaziyaga chalinganlar, asosan, maxsus “dasturlash faoliyatini” talab etmaydigan tayyor nutqiy shtamlardan foydalanadilar. Ularning nutqi suhbatdagi javoblarning qashshoqligi, bir boʻgʻinliligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi turida esa grammatik tuzilmashtirish funksiyasining buzilishi ustun va nutqida “moslashtirish” xatolari koʻrinishida namoyon boʻluvchi ekspressiv agrammatizmlar, shuningdek, “telegraf usuli”dagi hodisalar koʻrinishida namoyon boʻladi.¹⁵ Talaffuz etishdagi qiyinchiliklar sezilmas darajadadir.

Neyrolingvistika tilshunoslik va neyrofiziologiya fanlari oraligʻida vujudga kelgan fan boʻlib, nutqiy kamchiliklarni oʻrganadi. Afaziya neyrolingvistika fanining yoʻnalishlaridan biri boʻlib, uning asosida bosh miyaning shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nutqdagi nuqsonlar yotadi. Yuqorida A.R. Luriya qilgan tasnif boʻyicha afaziya turlarini koʻrib oʻtdik. A.R.Luriya miya shikastlanishini uchta blok asosida tasnif qilgan. Ishda Luriya tasnifi boʻyicha afaziya turlariga yondashildi. Birinchi blokda miyaning Broka markazi shikastlanishi natijasida afaziyaga chalinganlar gapirolmay qolishi, ikkinchi blokda soʻzlarni va gaplarni eshitib anglab olishning yoʻqolishi va uchinchi blokda afaziyaga chalinganlar oʻz fikrini bildirsa olmasligi, yaʼni idrok qila olmasligi koʻrsatib oʻtilgan. Demak, bosh miyaning shikastlanishi insonning nutqiy faoliyatiga oʻz taʼsirini koʻrsatadi va turli nutqiy kamchiliklarni yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

¹⁵ Ахутина Т.В. Нейролингвистический анализ динамической афазии. – М, 1975

II bob Afaziya holatining tilshunoslik sathlarida voqelanishi

(Introlingvistik omillarga ko'ra)

Ikkinchi bobda afaziya holatiga lingvistik jihatdan yondashib, afaziyaning til sathlarida namoyon bo'lishini ko'rib o'tamiz. Bosh miyaning shikastlanishi nutqimizga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu shikastlanish natijasida nutqimizda turli xil nutqiy kamchiliklar yuzaga keladi. Birinchi bobda aytib o'tganimizdek, uch blok asosida turli kamchiliklar: nutqning yo'qolishi, eshitish qobiliyatining susayishi va idrok qila olmaslik, ya'ni fikr yurita olmaslik kabilar yuzaga keladi. Bu kamchiliklar tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va semantik sathlarida namoyon bo'ladi. Umuman nutq hodisalarini kuzatish va o'rganish bolalar nutqini o'rganishga nisbatan murakkabroqdir. Nutq nuqsonlarining namoyon bo'lish sabablari va ko'rinishlari turli-tumandir, afaziyaga chalinganlar esa odatda atrofdigilarning kam qismi bilan aloqa qiladi. Nutq nuqsonini o'rganish tadqiqotchidan nafaqat lingvistika va psixologiya bilan, balki inson fiziologiyasi va tibbiyot bilan ham bog'liq bo'lgan bilimlarning turli majmuasini talab etadi. Buning barchasi nutq nuqsonlari materiallarini lingvistlar uchun nafaqat noodatiy qilib qo'yadi, balki ularning lingvistik tadqiqotlarda qo'llanilishini ham chegaralab qo'yadi.

Birinchidan, bu bemorlarda nutqni qayta tiklash muammosidir. Nutqning turli nutqlari ko'rinishlarida turli qayta tiklovchi mashg'ulotlar zarur. Reabilitatsiyaning samarali usullarini ishlab chiqishda lingvistlarning malakali yordami talab etiladi. Shu sababli bugungi kunda yirik qayta tiklovchi markazlarda lingvistlar yo doimiy ishlaydi, yoki u yoki bu shartlar asosida hamkorlik qilishga chorlanadi. Ikkinchidan, afaziyaga chalinganlar nutqini ekspress tahlil qilish yo'li orqali kasallikni tezlik bilan diagnostika qilish imkoniyatidir.

Nutq nuqsonlari bilan bog'liq tadqiqotlarning barcha yo'nalishlari ham bir xilda sinchiklab o'rganib chiqilmagan. Hamma dalillarni ham birdek lingvistik izohlash mumkin emas. Shu sababli bugungi kunda nutq nuqsoni bilan bog'liq barcha muammolarni batafsil va sistematik₃₆ ravishda izohlash imkoni mavjud emas.

Men tadqiqotlarning lingvistika uchun ibratli va nasihatimiz natijalarga ega bo'lgan asosiy yo'nalishiga e'tibor qaratdim. Bu yerda lingvistika nutqiy mexanizmlarni yangicha o'rganish imkonini beruvchi ma'ulmotlarni egallashning e'tiborga molik imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shu o'rinda I.P.Pavlovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish joiz: "Patologik holat ko'pincha bizdan panalangan, fiziologik me'yor nuqtayi nazaridan qaraganda muttasil va murakkablashtirilgan narsalarni ochib beradi va osonlashtiradi".¹⁶

Nutq patologiyasini tadqiq qilishning eng mashhur yo'nalishi – bu bir asrdan ortiq davr mobaynida rivojlanib kelayotgan, bugungi kunda nutqiy mexanizmlarni batafsil ishlab chiqilgan modelini taqdim qilgan afaziologiyadir. Fikr tug'ilishi modelining mualliflaridan biri T.V.Ryabova (Axutina) afaziolog ekanligi tasodif emas. Bu modelning o'zi esa nafaqat me'yorlarni, balki afaziyalarni ham nazarda tutadi. Ko'plab odamlar, ya'ni 95% odamlar o'ng qo'lda ish bajaradilar. O'ng qo'lda ish bajaradiganlarda nutqiy zonalar miyaning chap yarim sharida mujassamlangan. Shu sababli afaziologiya asosan miyaning chap yarim sharini o'rganish bilan shug'ullanadi.¹⁷

2.1.Afaziya holatining fonetik sathda namoyon bo'lish omillari.

Nutqiy fikr amalga oshirilishi uchun, albatta, gapiruvchi zaruriy nutqiy tovushlarni topishi, boshqacha qilib aytganda, ushbu tilni tovushli tashkillashtirilishi ustiga qurilgan tovushlar tizimini qo'llashi lozim. Tovushlarning bu tizimi qarama-qarshiliklar prinsipi asosida qurilgan, ya'ni uning o'zi paradigmatic tabiatga ega. Har bir til tomonidan qo'llaniladigan qarama-qarshiliklar zamonaviy lingvistika tomonidan yetarli darajada o'rganilgan. Tovushlarning qarama-qarshiliklari bo'yicha N.Trubetskiy, R.Yakobson va M.Xallelar va ko'plab boshqa olimlar tadqiqotlar olib borgan. Tovushlar tizimi tarkibidagi buzilishlar miya shikastlanishi natijasida yuzaga keladi.Miya shikastlanishlarida, jumladan chap markazorti

¹⁶ Павлов И.П. Полное собрание сочинений III том. Кн. 2. - М , 1952

¹⁷ Ахутина Т.В. Нейролингвистический анализ ³⁷динамической афазии. – М, 1975

sohaning pastki qismlari shikastlanishida, tovushning to'g'ri talaffuz qilish imkoniyatini saqlash uchun zarur bo'lgan kinestetik afferentatsiya amalga oshirib bo'lmaydigan holat yuzaga kelib qoladi.

Biz "afferent motor afaziya" da yuzaga keluvchi nutqiy fikrni tizimlashtirilishining buzilishlarini tahlil qilamiz.

"Afferent motor afaziya"ga olib keluvchi miya chap yarim sharining markazorti qismlari pastki bo'limining shikastlanishining natijasi bevosita tilning artikulyar kodlarini o'zlashtirish va qo'llashdan iborat. Bu holatda yuzaga kelgan miyaning postmarkaziy qismlarining patologik holati me'yordagi qobig'i uchun normal fiziologik holat bo'lgan va bu o'z davrida I.P.Pavlov tomonidan shakllantirilgan va psixik jarayonlarni tanlash xususiyatining zaruriy sharti bo'lgan "qonun kuchi"ni buzilishiga olib keladi. Agar me'yoriy postmarkaziy qobiqda kuchli yoki ahamiyatga ega kinestetik signallar ustun, kuchsizlari yoki ahamiyatga ega bo'lmaganlari susaygan yoki chetlashtirilgan bo'lsa, bu holat tilning artikulyar kodlarini qo'llashni osonlashtiradi, ya'ni bu holda miya qobig'ining bu qismi shikastlanishida holat o'zgaradi. Bu hollarda patologik "fazaviy" holatda bo'lgan kinestetik qobiq kuch qonuniga bo'ysinmay qo'yadi. Kuchli va kuchsiz qo'zg'otuvchilar tenglashadi va bir xil reaksiyalarni chaqiradi, buning natijasida zarur tovushlar, ular bilan tovushlarning qaysidir jihatiga ko'ra bog'lanuvchi keraksiz, ikkinchi darajali tovushlar hosil bo'ladi. Aynan mana shu holat talaffuz qarama-qarshiliklarning aniq paradigmatic tizimining buzilishiga olib keladi. Buning natijasida "apraksik afaziya" holati yuzaga keladi. Nisbatan yengilroq holatlarda faqat "l", "d", "n" yoki "m", "b", "p" (birinchi holatda til va tishlar orasidan chiquvchi, ikkinchi holatda lab orasidan chiquvchi) kabi, talaffuz qilish jihatidan faqatgina qaysidir bir jihatiga ko'ra farq qiluvchi bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarning yuzaga chiqish ehtimoli bilan namoyon bo'ladi. Buning natijasida afaziyaga chalinganlar tovushlarni osonlik bilan almashtirib yuboradi va stol so'zini "slot" yoki "snot", xalat so'zini esa "xanat" yoki "xadat" so'zi kabi talaffuz eta boshlaydi. Shikastlanish hajmi keng tarqalgan holatlarda esa bir-biridan ko'proq farq qiluvchi fonemalar₃₈ qarama-qarshiligi buziladi va

tashkillashtirilish usuli va joyiga ko'ra farq qiluvchi fonemalar yanada aniqroq namoyon bo'lishni boshlaydi. Afaziyaga chalinganlar osonlik bilan portlovchi, frikativ, til oldi, o'rta va til orti, bir fokusli va ikki fokusli sirg'aluvchi, yumshoq va qattiq undoshlarni aralashtirib yuboradilar. Bunday holatlarda o'z tashkillashtirilishiga ko'ra fonemalar talaffuz qilingan nutqni to'liq buzgan holda yuzaga chiqib boshlaydi. Bu holatlarda yuzaga keladigan tovush almashtirishlar qonuni E.N.Vinarskiy tomonidan batafsil o'rganib chiqilgan.¹⁸ Jumladan, agar afaziyaga chalinganlarda shovqinli va sonorli undoshlarning aralashib ketishi nisbatan kamroq kuzatilsa, u holda jarangsiz va jarangli undosh tovushlarning aralashib ketishi ko'proq kuzatiladi, paydo bo'lish usuli va joyiga ko'ra qarama-qarshi qo'yiluvchi tovushlarning aralashib ketishi esa undan ham ko'proq kuzatiladi. Bu birlamchi buzilishning bevosita natijasi biz bu holatlarda kuzatishimiz mumkin bo'lgan nutqiy xabarni qoliplashtirishning tovush tizimining parchalanib ketishidir.

Afaziyaga chalinganlar yetkazib berishni istagan fikrning sababi va ma'noviy mazmuni tuzilishi ularda to'liq saqlanib qoladi, biroq faol nutqiy jarayonni tashkillashtirish qo'pol ravishda buzilganligi sababli unga kirib borish murakkablashadi. Bu guruhga kiruvchi afaziyaga chalinganlar faol ravishda nimadir demoqchi bo'lib so'zlar qidiradi, biroq ularning har bir harakati tovush qarama-qarshiliklarining paradigmatic tizimiga kirish imkoniyati mavjud bo'lmaganligi sababli samarasiz bo'lib qolaveradi. Afaziyaga chalinganlar o'xshash guruhlardan ularning barchasini birma-bir titib chiqqan holda kerakli tovushni tanlab olishga samarasiz ravishda harakat qiladi yoki yuzaga chiquvchi talaffuz harakatlarining tartibsizligi quliga aylangan holda birgina tovush ham chiqara olmaydi. Aynan shu buzilish "apraktik" yoki "afferent motor afaziya" holatida etakchidir. Afaziyaga chalinganlarning bu guruhida ko'rsatilgan buzilishlar ham mustaqil, ham takroriy, ham og'zaki, ham yozma nutqlarda teng miqdorda namoyon bo'ladi. Hamma holatlarda ham ular yo to'liq gapira olmaslikda yoki "literal afaziya"larda kerakli tovushni yondosh tovushlarga

¹⁸ Вынарская Е. Н. Клинические проблемы афазии. – М., 1971.

almashtirilishi namoyon bo'ladi. Bunda "verbal parafaziya", ya'ni so'zlarning o'rnini almashtirish kabi nuqsonlar bo'lmisligi o'ziga xos xususiyatdir.¹⁹

Ushbu holatning xarakterli jihati shundaki, boshqa til sathlari, ya'ni leksik-morfologik va semantik sathlar nisbatan saqlangan, nutqning sintagmatik ravon tashkillashtirilishi, ehtimol, umuman buzilmagan bu holatlarda tilning paradigmatic kodlaridan foydalanishni buzilish holatlari faqatgina fonetik sathda vujudga keladi. Bizni qiziqtirgan buzilishlar shakliga ega bo'lgan afaziyaga chalinganlar yuqorida ta'riflab o'tilgan tovush almashtirishlarisiz chegaralangan tovushni, bo'g'inni yoki so'zni aniq talaffuz eta olmaydilar va qaytara olmaydilar. Ularning aniq tovushlarni topishga urinishi qanchalik ortib borsa, zarur tovushni topish shunchalik murakkablashib boradi. Biroq agar afaziyaga chalingan kishi bu urinishdan chalg'isa, u butun jummalarni osonlik bilan talaffuz qila oladi. Bunda sintagmatik tashkillashtirilgan ravon nutqning buzilganligining hech qanday belgilari namoyon bo'lmaydi. Bu paradoksal holat adabiyotlarda ko'p marotaba "o'tkazuvchi afaziya" hodisasi sifatida ta'riflangan va afaziyaga chalinganga yo'q degan so'zni takrorlash taklif qilinganda u "Yo'q doktor, men yo'q degan so'zni takrorlay olmayman", - deya javob qaytaradi. Biz hali bu guruh afaziyaga chalinganlarda fikrni kodlashtirishning boshqa darajalari, jumladan tilning leksik-morfologik va semantik kodlarini o'zlashtirish imkoniyati qanchalik oqsashi mumkinligini bilish imkonini beruvchi to'liq va ishonchli ma'lumotlarga ega emasmiz. Bu kodlarning qo'llanilishi "afferent motor afaziya" holatidagi afaziyaga chalinganlarda ham oqsashi mumkin. Biroq bu holat, hattoki mavjud bo'lsa ham ikkilamchi tizimli tabiatga ega bo'ladi. Barcha harakatlari bir to'plam oraqsidan zarur tovushlarni topishga qaratilgan afaziyaga chalinganlar fikrning zaruriy tuzilmasini yo'qotib qo'yishi, uni soddalashtirishi yoki shaklini o'zgartirishi mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, biz hozir aytib o'tgan holat va bu holatlarda kuzatiladigan buzilishlar tilning leksik-morfologik va semantik kodlarini fonematik kodlarga bog'liq emasligini ko'rsatadi.

¹⁹ Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики – М, 1975.

Motor afaziyaga chalinganlarda qayta tiklash ta'limining asosiy vazifasi, alohida tovushlarni tabaqalashtirish yoki "tovushni qurish" uchun oddiy atamalardan foydalanish to'g'ri talaffuz jihatlarini topish imkoniyatini qayta tiklashdan iborat. Agar "tovushlarni qurish" vazifasi bajarilgan bo'lsa, bu bemorlar keyinchalik so'zning morfologik shaklini qayta tiklashda, kerakli nomlarni topishda yoki butun iboralarni qurishda hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. Biz tovush tizimining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan tilning fonematik sirlarini egallash imkoniyatining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan fikrning buzilishi shaklini tahlil qilishga to'xtalib o'tdik.

Afaziyaning bu holatida biz til kodlarining fonematik darajasi buzilishlariga o'tishimiz va ushbu buzilishlar asosida til kodlarining fonematik tashkillashtirilishining akustik asoslari buzilgan, ya'ni fonematik eshitish qobiliyatining buzilishi holatiga to'xtalib o'tishimiz lozim. Bu buzilish "sensorli" yoki "akustik-gnostik" afaziya holatiga olib keluvchi chap chakka sohasining yuqori qismlarining shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu holatlarda yuzaga keluvchi nutqiy buzilishlar ko'p jihatlariga ko'ra afferent motor afaziya holatining qarama-qarshi holatidir.

Miya chap yarim sharining postmarkaziy bo'limlarining pastki qismlari shikastlanishi natijasida yuzaga keluvchi afferent motor afaziyaning yuqorida ta'riflab o'tilgan holatlarida tilning fonematik tashkillashtirilishining buzilish holatlari tovush qarama-qarshiliklarning parchalanishi natijasida yuzaga keladi. Yuqori chakka burmalarining orqa qismlarining shikastlanishida til kodlarining aynan shu darajalarining buzilishi boshqa tarafdin tegishli fonematik tizimlarning akustik tashkillashtirilishining parchalanishi natijasida yuzaga keladi. Sensorli (akustik-gnostik) afaziyaning bu kabi shakllarining nisbatan kamroq namoyon bo'lgan holatida faqatgina korrelyativ fonemalarning qarama-qarshiligi buziladi. Rus tilida faqatgina bir jihatiga ko'ra farqlanuvchi fonemalar shu turga mansub: jarangli-jarangsizligiga ko'ra b-p, d-t, qattiq-yumshoqligiga ko'ra l-l, t-t, nazallik-nonazalligiga ko'ra n, t va boshqa tovushlar kiradi.. Bunday buzilishlarni sezib qolgan afaziyaga chalinganlar *da-ta* va ₄₁*ta-da*, *ba-pa* va *pa-ba* bo'g'inlaridagi

farqlarni ajrata olmaydilar va ularni bir xilda “da-da” yoki “ba-ba” kabi talaffuz etadilar va bu juftlikning har ikkisida ham qandaydir farq bor, biroq uni aniq bila olmayotganlarini aytadilar. Tovushlar yo‘qolib qolganda ham shu holat yuzaga keladi va aynan shu fakt birlamchi buzilishning sensorli tabiatiga duch kelganimizni ko‘rsatadi. Aynan shu dastlabki nuqson tufayli bemorlar *bochka* va *pochka*, *dochka* va *tochka*, *zala* va *salo*, *fil* va *pil* so‘zlari o‘rtasidagi farqni tushuna olmaydilar va ularni yozishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Bu turdagi o‘ta kuchli buzilishlar bemor bir biridan juda uzoq bo‘lgan fonemlarni ham ajrata olmaydi, unda so‘zlar ma’nolarining begonalashib ketishi holati yuz beradi. Masalan, burnini ko‘rsatish taklif etilgan bemor “bur, burma, buroq” so‘zlarini takrorlaydi va bu so‘zni aniqlashga bo‘lgan samarasiz urinishlardan so‘ng: “Yo‘q, men bu so‘z nimani anglatishini bilmayman...”, deb aytadi. Tabiiyki, tegishli so‘zlarni takrorlay olmaslik, ko‘rsatilgan predmetlarni nomini ayta olmaslik, bu birlamchi buzilishning natijasidir. Vaholanki, bu yerda paydo bo‘layotgan xatolar literal parafaziyalar tabiatiga ega. Yuqorida ta’riflangan afferent motor afaziya holatlaridan farqli ravishda bu yerda namoyon bo‘layotgan o‘rindoshlar artikulyar tabiatga ega emas, balki aniq ifodalangan akustik tabiatga ega bo‘ladi va faqatgina ayrim hollardagina kerakli so‘zni topolmay qiynalayotgan afaziyaga chalingan kishi uni ma’nosiga ko‘ra yaqin bo‘lgan so‘z bilan o‘zgartira oladi. Bu kabi afaziyaga chalinganlarda sintagmatik va prosodik tashkillashtirilgan nutq nisbatan saqlangan holda bo‘lishi juda kam uchraydigan holat hisoblanadi. Kerakli so‘zlarni topish imkoniyatiga ega bo‘lmagan afaziyaga chalingan kishi butun jumlaning umumiy shaklini va uning tarkibiga kiruvchi so‘zlarning strukturasini, uning umumiy intonatsion-musiqiy bezagini saqlab qoladi. Aynan shu sababli bu kabi afaziyaga chalinganlarning umuman mavjud bo‘lmagan yoki faqatgina buzilgan ko‘rinishda namoyon bo‘luvchi va asosan kirish so‘zlar, undov, kamroq hollarda bog‘lovchi va fe’llar saqlanib qolgan nutqini tinglayotgan odam, avvalambor, bemor nutqida to‘liq saqlanib qolgan fikrni ifodalashning sintaktik va intonatsion-musiqiy tuzilmasi tufayli tushuna olishi mumkin. Shu sababli afaziyaga chalinganlar tarkibida bir dona ham ot₄₂ bo‘lmagan so‘zlar yordamida o‘zining

shikastlanish tarixini aytib beradi va deydi: “Mana masalan...avval biz demak... u yerga...keyin sekin-sekin...ular esa o’sha yerda, va birdaniga – ox!! Va so’ngra – hech nima!...so’ngra voy, voy, voy, nima bo’ldi....so’ngra ...mana...sekin-sekin...va keyin...yaxshiroq-yaxshiroq...va mana hozir shu ahvol?!” – tinglayotgan odam hech qanday qiyinchiliklarsiz sekin-astalik bilan qilingan harakatni tushunib olishi mumkin.

Bu nutqiy buzilishlarni “fluent aphasias” guruhiga kiritish va nutqiy zonalarining old bo’limlarining “non-fluent aphasias” guruhiga qarama-qarshi qo’yish imkonini beruvchi sintagmatik nutqning nisbiy saqlanganligidir. Bu guruh afaziyaga chalinganlari kerakli so’zni topishga harakat qilganlarida aynan shu holat namoyon bo’ladi. Samarasiz izlanishlardan so’ng ular kerakli fonematik strukturani topish mumkin emasligiga ishonch hosil qiladilar va ular odatiy to’liq jumla tarkibiga kerakli so’zni kiritgan holda so’zni topishda yuzaga kelgan dastlabki nuqsonni o’rnini to’ldirishga harakat qiladilar. Odatiy urinishlar quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi: “mana, bu bilan yoziladi” yoki “e, nima edi...u qanday?... e...mana...men choyni aralashtiryapman...qoshiq bilan!! qoshiq!”. Afaziyaga chalinganlarning bu guruhida fikrni umumiy kodlashtirish holatining ahamiyatli jihati, tilning saqlangan sintagmatik strukturasi va paradigmatic strukturasi o’rtasidagi farqning mavjudligidir. Til kodlarining o’zlashtirilishi va qo’llanilishi ularda birinchi navbatda fonematik ziddiyatlar darajasida namoyon bo’ladi. O’rganilgan har ikki holat ham, avval aytib o’tganimizdek, asosiy nuqsonlarning biri tilning tovushlar tizimidagi tovush kodlari tizimida va ikkinchi holatda fonematik qatordagi nuqsonlardir. Bu yerda ahamiyatga ega narsa birinchidan tovush va so’zlarning takrorlanishi, predmetlarni nomini aytish yoki butun bir fikrni ifodalash, tovushlar yoki fonemalar tizimini buzilishi bilan bog’liq bo’lgan qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa kerakli artikulyar-fonematik komponentlarni samarasiz izlashga olib keluvchi boshqa yo’lga o’tadilar, ya’ni faol jarayonda yuzaga keluvchi yoki kontekstga odatiy fikrni kiritish yo’li orqali ma’nosiga ko’ra o’zaro bog’liq so’zlarning yuzaga chiqishiga olib keladi. Ikkinchidan, fikrni ifodalashda nutqiy kodlashtirish keskin to’siqlarga duch₄₃ kelsa-da, fikrni asosiy ma’nosi saqlanib

qolganligi katta ahamiyatga ega. Ta'riflangan har ikki guruh buzilishining ahamiyatli buzilishlarida yuzaga keluvchi patologik holat ikkita umumiy jihatga ega bo'ladi. Bir tarafdin har ikki holatda ham buzilish faqatgina tovushli nutqning fonematik tashkillashtirilishini qamrab oladi. Leksik-morfologik va semantik tashkillashtirilishida buzilish yuzaga kelsa ham, bu katta ahamiyatga ega buzilish bo'lmaydi. Boshqa tarafdin esa avval ta'riflab o'tilgan nutqiy buzilishlar turlaridan farqli ravishda, bu yerda yuzaga keluvchi miya shikastlanishi bog'liqlik, ya'ni fikrni sintagmatik ravishda tashkillashtirilishi nisbatan kamroq buzilgan holda, ayrim hollarda esa umuman buzilmagan holda tilning pragmatik ravishda tashkillashtirilgan tovushli kodlari tizimini egallash qobiliyatining buzilishiga olib keladi.

Buning barchasi nutqiy faoliyatning har ikki jihati ham, ya'ni sintagmatika va paradigmatika ham turli miya mexanizmlariga tayanadi va miyaning turli shikastlanishlarida izolyatsiyalangan ravishda jabrlanishi mumkin: sintagmatik ravishda tashkillashtirilgan ravon birlamchi fikrni buzilishiga olib keluvchi shikastlanishlar bilan bir qatorda shunday shikastlanishlar mavjudki, dastlab ular tilning fonematik va artikulemli kodlarini o'zlashtirish imkoniyatini buzadi va bu bilan predmetlarni aniq nomlash imkoniyatini susaytiradi, biroq u fikr bildirishning predikativ va intonatsion-musiqiy tuzilmasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Nutq zonalarining old qismlarining shikastlanishi, o'zining avtomatlashtirilishining yuqori bosqichlarida umumlashtirilgan kinetik sxema yoki harakatlantiruvchi ko'nikmalarini yaratilishini ta'minlovchi va vazifasiga ko'ra keng ochib berilgan, predikativ nutqiy faoliyatni yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan jarayonlar integratsiyasini buzilishining olib kelishiga shubha yo'q. Afaziyaga chalinganlar nutqi uchun xos bo'lgan komnata so'zi o'rniga gommada, yoki Boris o'rniga Paris deb talaffuz qilinadigan buzilishlar holatlariga to'xtalib o'tamiz. Bu paradigmatika, aynan fonema oppozitsiyalar uchun odatiy bo'lgan buzilishlardir. Bunda juftliklar neytrallashadi, adashishni boshlaydi, jarangli va jarangsizligiga ko'ra farqlayolmay qoladi. Bu kabi afaziyaga chalinganlar tez va ko'p gapirganligi sababli doimiy ravishda gommada kabi fonematik₄₄ buzilishlarga yo'l qo'yadi va shu sababli

uning nutqini tushunish, o'z navbatida, u bilan muloqot qilish jiddiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Yuqorida keltirib o'tilgan guruhlarda biz bu jarayonni nisbatan sodda – artikulyasion-fonematik darajada buzgan nutqiy nuqsonlar shaklini o'rganib chiqdik.

2.2 .Leksik va semantik sathda namoyon bo'lish omillari

Biz yuqorida afaziyaning fonetik sathda namoyon bo'lish omillariga to'xtalgan edik. Ikkinchi bobning bu faslida afaziyaning leksik va semantik sathda namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz. Nutqiy buzilish tovushlar tarkibining buzilishi bilan cheklanib qolmaydi. Afaziyaga chalinganlar nutqida so'zlarning talaffuzidagi va ma'noviy kamchiliklar ham yuzaga keladi. Bu kabi afaziyaga chalinganlar atrofida qanday qiziqish bildirmay, hech qanday iltimos va hech qanday savollar bilan murojaat qilmay befarqlik bilan yuraveradilar. Eng og'ir holatlarda ularning o'z-o'zidan hosil bo'luvchi nutqlari yo'qolib qoladi. Qo'pol buzilishlar so'zlashuv nutqida namoyon bo'ladi. Afaziyaga chalinganlarga berilgan savollarga o'sha savollarni exo tarzida takrorlash bilan juda oson javob beradilar. Eng og'ir holatlarda, garchi alohida so'zlarni yoki savoldagi qisqa iboralarni takrorlash ular uchun qiyinchilik tug'dirmasada, ularning barcha nutqiy faoliyati shu bilan tugaydi. Keng hamjli, biroq birmuncha yengil holatlarda afaziyaga chalinganlar savolning o'zida javobi shakllangan savollarning birinchi turiga oson javob qaytaradi, biroq o'zi mustaqil ravishda fikrini jamlab javob qaytarish lozim bo'lgan savollarga esa javob qaytara olmaydi. Bu kabi afaziyaga chalinganlar: *Siz tushlik qildingizmi?*, - degan savolga *Qildim*, - deb javob qaytara oladi, biroq *Tushlikka nima edingiz?* yoki *Siz qachon kasal bo'lib qoldingiz?* kabi faol ravishda yangi nutqiy ifodani talab etuvchi savolga esa javob bera olmaydi. Faqatgina "peshona inaktivligining" engil formasidagina oxirgi savollarga javob berish mumkin bo'ladi, lekin bemorning nutqi qashshoq holatda bo'ladi. O'zgarishlar takroriy nutqdagi kabi ko'rsatilayotgan predmetlarni nomlashda ham namoyon bo'ladi. Afaziyaga₄₅ chalinganlar oddiy so'zlarni va qisqa

iboralarni qiyinchiliklarsiz takrorlaydi. Qator bo'g'inlar yoki so'zlarni takrorlashda hech qanday nuqsonlar namoyon bo'lmazligi mumkin. Lekin eng og'ir holatlarda afaziyaga chalinganlar faqatgina oxirgi bo'g'inlar yoki so'zlarni exolalik ravishda takrorlaydi. Bunda bir muncha vaqtdan so'ng ularni takrorlash sekinlashadi va so'ngra umuman yo'qolib qoladi. Afaziyaga chalinganlarda bir so'z yoki iborani takrorlashdan boshqa so'z yoki iborani takrorlashga o'tish tobora qiyinlashib boruvchi patologik harakatsizlik namoyon bo'la boshlaydi. Taklif qilingan qator yaxshi mustahkamlangan "tabiiy qatordan" chetlashgan yoki u bilan to'qnashgan holatlarda so'zlarning ketma-ket qatorini takrorlashda keskin qiyinchiliklarga duch kelishi qiziq holatdir. Bu holatlarda masalan, hafta kunlarini teskari sanash haqidagi taklifga javoban afaziyaga chalinganlar taklif etilgan "nizoli qator"ni takrorlay boshlaydi, biroq shu zahotiyoyq yaxshi mustahkamlangan "tabiiy" qatorga o'tib ketadi va *dushanba – yakshanba – shanba* qatori o'rniga quyidagi qatorni gapira boshlaydi: *dushanba – yakshanba – shanba – yakshanba – dushanba* va h.k. Noodatiy va noto'g'ri iboralarni takrorlashda osonlik bilan odatiy va to'g'ri iboralarni aytishga o'tib ketish bilan bog'liq tajribalarda ham o'xshash holat yuzaga keladi. *Samolyot juda sekin uchaypti* iborasi o'rniga *Samolyot juda tez uchaypti* iborasini qo'llaydi. Bir iborani takrorlashdan ikkinchi iborani takrorlashga o'tishda esa afaziyaga chalinganlar beixtiyor ravishda birinchi iborani takrorlayveradi va bu ikki ibora bir-biridan farq qiladimi degan savolga: "*Albatta, ular ma'nosiga ko'ra...talaffuz qilinishiga ko'ra*" farq qiladi, biroq aynan o'sha iborani takrorlayveradi. Afaziyaga chalinganlarda alohida predmetlarni nomlarini aytishda sezilarli nuqsonlar kuzatilmaydi, biroq bir juft yoki uchta predmetni ko'rsatib ularni nomlarini aytish so'ralsa, bizga ma'lum bo'lgan inert stereotiplarga o'tib oladi. *Olma* va *olchalar* deb aytishga uringan holda *olma* va *kichik olmachalar* yoki *choynak* va *lampa* deyish o'rniga, *bu choynak...*, bu esa *stol choynagi* deb javob beradi.

Bundan tashqari afaziyaga chalinganlarning monologik nutqi qo'pol buzilish jihatlarini namoyon etadi. To'liq fikr aytish uchun zarur bo'lgan so'zlar to'plami va sintaktik strukturalar yetarli darajada₄₆ saqlanib qolishiga qaramasdan, ochib

berishning barqaror dasturini talab etuvchi monologik nutq amalga oshirib bo'lmaydigan darajaga kelib qoladi. Shu sababli sujet holatini ta'riflab berishda afaziyaga chalingan kishi uning tarkibiga kiritilgan alohida predmetlar yoki stereotiplarini aralashib ketishiga sabab bo'luvchi vaziyatning tasvirdagi alohida bo'laklarini sanab o'tish bilangina chegaralanib qoladi. *Mana Kreml... "ehtiyot bo'ling" yozuvi..., ehtimol yuqori kuchlanishli tok... yoki Mana bola...o'qituvchi uni jazolayapti. Mana...tovuq...u oltin tuxumlar qo'ymoqda...uning ichida esa hech nima yo'q ekan* tarzida fikrini namoyon etadi.

A.R.Luriya tomonidan 28 yoshli katta hajmdagi temir yo'l shikastlanishini olib afaziyaga chalingan talabada tajriba o'tkaziladi. Afaziyaga chalingan bu talaba elementar nutqni hech qanday fonetik va artikulyator buzilishlarsiz saqlab qolgan. U alohida so'zlar va qisqa iboralarni oson takrorlay olar va alohida predmetlarni hech qanday qiyinchiliksiz nomlar edi. Biroq uning o'z-o'zidan hosil bo'luvchi nutqi juda past darajada va hattoki eng oddiy so'zlashuv nutqi, ya'ni eng oddiy savollarga javoblari ham juda tez tugab qolar va aynan bir stereotiplarning o'zgarishsiz takrorlanishi bilan almashtiriladi. Masalan, uning ismi nima ekanligi haqidagi savolga u quyidagicha javob berar edi: "Vladimir Petrovich..." *Otangizning ismi nima?* savoliga "...Otamni...Vladimir Petrovich..." *Onangizni ismi-chi?* "Onamni...Vladimir Petrovich..." *Siz qaysi kursda o'qiyasiz?*, "Beshinchi kursda!" *Qaysi fakultetda?* "Beshinchi fakultetda" *Siz qaysi mutaxassislik bo'yicha o'qiyasiz?* "Qaysi mutaxassislik bo'yicha?...Beshinchi mutaxassislik bo'yicha". *Siz qaysi institutda o'qiyasiz?* "Energetika institutida...". *O'qishni tugatganingizda siz qaerda ishlaysiz?* "Qayerda ishlayman... o'sha yerda, Energetika institutida". *Axir, siz bu institutni tugatyapasiz-ku?* "Xo'p, men boshqa qayerda ishlashim mumkin?..."²⁰ Bundan ko'rinib turibdiki, nutqning fonetik, artikulyator, leksik va grammatik darajalari to'liq saqlanib qolgan holatda ham, nutqni mustaqil ravishda ochib berish imkoni mavjud bo'lmay qoldi va to'liq exolaliya va o'zgarmas stereotiplar bilan almashtirib yuborildi. O'xshash holatlar afaziyaga chalinganlarning takroriy nutqida va predmetlarni mustaqil ravishda nomalashida

²⁰ Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики – М, 1975.

ham kuzatildi. Biz avval aytganimizdek, afaziyaga chalingan kishi alohida soʻzlarni va oddiy iboralarni oson takrorlay oladi, ammo unga berilgan soʻzlarning ikki juftini yoki ketma-ket keltirilgan iboralarni takrorlash vazifalari berilganda, uning takroriy nutqi tezlik bilan oʻzgarmas stereotiplar bilan almashib ketdi. Shunday qilib afaziyaga chalinganlar bir juft soʻzni oson takrorladi: *qor – igna*, biroq shu zahotiyoq soʻzlarning boshqa ketma-ketliklarini aytish taklif qilinsa, *tun – uy*, u quyidagicha takrorlaydi: “*tun... va igna...*” yoki keyinchalik “*qor – igna*” deb takrorlaydi; keyingi “*uy – igna – pirog*” qatorini takrorlashda buni oson bajaradi: *jarang – koʻprik – xoch* soʻzalarini u “*jarang – igna – pirog*” yoki “*uy – igna – pirog*” sifatida takrorlay boshladi. Buni u nisbatan yengillik bilan bajardi. Afaziyaga chalingan kishi quyidagi jumlani oson takrorladi: Baland panjara ortidagi bogʻda olmalar oʻsadi va keyingi “*Mana...oʻrmon chekkasida ovchi boʻrini oʻldirdi...*” jumlasini ham oson takrorladi, lekin undan birinchi jumlani yana takrorlash soʻralganda u “*Mana...oʻrmon chekkasida ovchi boʻrini oʻldirdi...*” deb takrorladi. Ikkinchi jumla qanday edi? – “*Oʻrmon chekkasida ovchi boʻrini oʻldirdi*”. Demak, bular bir xil jumlarlar ekanda? “Yoʻq, bir xil emas...” – “Ularning birinchisi qay biri edi?” – “*Mana, oʻrmon chekkasida ovchi boʻrini oʻldirdi... – Ikkinchisi-chi? – Ikkinchisi?!... Oʻrmon chekkasida ovchi... boʻrini ...oʻldirdi*” – Bularning farqi nimada? – “Talffuz qilinishi boshqacha... nutq ohangi boshqa”. Har ikki ibora oʻrtasidagi farqni anglash holati umuman kuzatilmadi. Har ikki iborani takrorlashga harakat qilgan holda afaziyaga chalingan kishi eng yaxshi holatlarda “*Oʻrmon chekkasida ovchi boʻrini oʻldirdi...quyonni...*”. Haraktsiz stereotip berilgan iboralarning ikkinchisiga oʻtishning oʻrnini toʻliq egallab oldi.

A.R.Luriya motor afaziya bilan bir qatorda dinamik afaziyaning ham ajratib koʻrsatishni taklif qilgan. Dinamik afaziyaga chalinganlar alohida gaplarni yaxshi qura oladi, biroq katta ravon matn qurishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu unda miyaning eng yangi sohalari buzilganligini anglatadi. Bu kabi afaziyaga chalinganlar talaffuz eta oladigan ravon fikrlar odatda oddiygina qayta takrorlanuvchi birliklardan iborat boʻladi. ²¹A. R.Luriya tomonidan bu kabi

²¹ Лурья А.Р. Основные проблемы нейролингвистики – М, 1975

afaziyaga chalinganlar nutqidan keltirilgan misollar ko‘rib o‘tamiz. Afaziyaga chalinganlardan biri “Shimol” mavzusida hikoya qilib berish taklifiga – avval “Yo‘q...hech nima qila olmayman...miyamga hech nima kelmayapti...” deb rad javobini berdi, so‘ngra juda uzoq sukutdan so‘ng yodida yaxshi saqlanib qolgan she‘rni aytib berdi: “Yovvoyi shimolda yalang‘och cho‘qqida yolg‘izlikda qarag‘ay turibdi”. Boshqa bemor aynan shu vazifaga juda uzoq sukutdan so‘ng: “Shimolda ayiqlar bor...”, dedi, so‘ngra yana ancha vaqt o‘tgandan so‘ng dedi: “...shuni sizga ma‘lum qilib qo‘ymoqdaman” deya javob beradi. Bu kuzatuvdan ko‘rinib turibdiki, afaziyaga chalinganlar nutqida uslublarni farqlay olmaslik holati ham uchraydi. Oddiy so‘zlashuv nutqida ham rasmiy tarzda javob qaytaradi.

A.R.Luriya semantik afaziyani ham keltiradi. Afaziyaning bu turi uchun vaqtinchalik munosabatlarning, old qo‘shimchalarning aralashib ketishi xosdir. Oddiy misol: afaziyaga chalinganlar Sonya Olgadan oqroq, lekin Katyadan qoraroq. Bemor uchun bu munosabatlarni to‘g‘ri baholay olish juda murakkab vazifadir. Yana bir misol: afaziyaga chalinganlardan aylana tagiga krest chizishni taklif qiladilar, afaziyaga chalinganlar esa krestni aylana ustiga, aylana yoniga chizadi. Bu holatlar ham paradigmaticaning buzilishidir, bunda tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zi oqroq – qoraroq, ustida – ostida ma‘lum paradigmatic munosabatlarga kirishadi va buziladi. Shunday qilib, jarangli o‘rniga jarangsiz ishlatilganda, maymun so‘zi o‘rniga to‘ti so‘zi qo‘llanilganda va aylana tagidagi krestni aylana ustiga chizilganda – bularning barchasi paradigmatic tabiatga ega hodislardir.

Miya yarim sharining orqa qismi chakka, yuqori va gardan qismlarini qamrab oladi. Bu yerda nutqiy mexanizmlar boshqa xilda, ya‘ni paradigmatic. Ko‘p tadqiqotchilar aynan Vernike zonasida fonologik va semantik strukturalarni yuzaga keltiruvchi asosiy til mexanizmalari joylashgan va aynan shu yerda nutqni tushunish jarayoni yuzaga keladi, deb hisoblaydilar. Hozirgi kunda aniq dalillar mavjud emas, biroq bu yerda ham miya chap yarim sharining orqa qismining o‘rta

zonalaridan ortga qarab yurilsa, undan ham murakkabroq, nozik mexanizmlar ham paradigmatickaga jalb qilingan bo'ladi.

Ayrim hollarda ifoda etish rejasining va mazmun rejasining paradigmatick tashkillashtirilishi bir-biridan shunchalik uzoqlashadiki, bunda o'ziga xos ma'noning begonalishish hodisasi yuz beradi, ya'ni afaziyaga chalingan kishi quyidagicha gapiradi: "Men bu so'zni bilaman. Bilaman, aniq bilaman, biroq buning nima ekanligini eslay olmayman". So'z afaziyaga chalingan kishi uchun qiymatini yo'qotadi. Ayrim hollarda afaziyaga chalingan kishi umumlashtirishning oddiy holatidan, eng yuqori darajasiga ko'tarilishi mumkin. Masalan, *futbol* so'zini izohlay turib u shunday deydi: "Bu jismoniy tarbiyaga oid nimadir". Paradigmatick oppozitsiyalarni neytrallashtiruvchi mustahkamlanib qolgan detallashtiruvchi jihatlarning ijtimoiy ravishda yo'qolib ketishi bu kabi afaziyaga chalinganlarning nutqiy faoliyatiga xos bo'lgan jihatdir. Ular paradigmatick maydon elementlarining aralashib ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday hodisalarni parafaziya deb ataydilar. Parafaziyaga yorqin misolni E.N.Vinarskaya keltiradi. Afaziyaga chalinganlarga suratlar ko'rsatadilar va undan ularda tasvirlangan predmetlarni nomlashni so'raydilar. Shapkani ko'rsatadilar u shapka deydi, sandiqni ko'rsatadilar, u sandiq yoki chemodan deyishi mumkin, maymunni ko'rsatsalar u to'ti deb aytishi mumkin.²² Nomlarning aralashib ketishiga qaramasdan bu yerda aniq qonuniyat mavjud: tanlov doimo qandaydir aniq paradigmatick sinfda, paradigmatick maydonda olib boriladi. Parafaziyalar literal, ya'ni tovushlarning almashtirib yuborilishi bilan, va verbal, ya'ni so'zlarning aralashib ketishi bilan bog'liq bo'ladi. Bemor maymun so'zi o'rniga to'ti deb aytganda hayvonlar, qushlar dengiz orti hayvonlari sifatida belgilanishi mumkin bo'lgan nomlarning paradigmatick sinfida tanlash me'yori buzilishining natijasi bo'lishi mumkin.

Sensorli afaziyada shikastlanishi uncha jiddiy bo'lmagan bemorlar nutqi haqidagi umumiy taassurotni "Baxtsiz hodisa" nomli surat bo'yicha qilingan quyidagi hikoya berishi mumkin:

²² Вынарская Е. Н. Клинические проблемы афазии. – М., 1971.

- Bu tramvay, bemorlar uchun mashina...mana, qanday...bog‘bon xizmatkor qiz bolani yoki o‘g‘il bolani...ularga qiziq ayollarga...navbat qarab turibdi, mashina esa ketadi va ular ham ketadi, ularning qiladigan ishi yo‘q...mashina urib yuborgan...urib yuborgan uni, ko‘tarishdi va kasalxonaga...

2.3. Afaziya holatining morfologik va sintaktik sathda namoyon bo‘lish omillari

Endi esa biz fikrni kodlashtirishning nisbatan murakkabroq ko‘rinishlarini tahlil qilishga o‘tamiz. Avval biz ulardan, eshitish-nutqiy buzilishlarning maxsus ko‘rinishlari bilan bog‘liq turlarini, so‘ngra fikrni kodlashtirilishi buzilishining yanada murakkabroq bo‘lgan ko‘rinishlarini o‘rganib chiqamiz. Broka zonasining old tarafida yana bir nechta nutqiy zonalar mavjud bo‘lib, ularning har bir nutqni tashkillashtirishning eng yuqori darajasini boshqaradi. Bu yerda birliklarni ulovchi: tovushlarni bo‘g‘inlarga, morfemalarni so‘zlarga, so‘zlarni gaplarga, gaplarni esa ravon matnga ma‘lum ketma-ketlikda joylashtiruvchi mexanizmlar, ya‘ni sintagmatik mexanizmlar mavjud. Afaziyaga chalinganlardan oddiygina M.Y.Lermontovning she‘ridan iborani o‘qib berdi: “Yovvoyi shimolda yalang‘och cho‘qqida yolg‘izlikda qarag‘ay turibdi”. Afaziyaga chalinganlar qandaydir kengaytirilgan matnni bayon qila turib uni nutq tug‘ilishi jarayonida qurmaydi, balki uni yodlab olingan yaxlit blok holatida talaffuz etadi. Sintaksis nuqtayi nazaridan bemorning nutqi yetarli darajada yaxshi tashkillashtirilgan, biroq bemor doimiy ravishda so‘zlarni yodidan chiqarib qo‘yadi, parafaziyalarga yo‘l qo‘yadi, nomlarni tanlashda adashadi “tez yordam mashinasi”ni avval *tramvay* deb ataydi, tugallanmalarni adashtirgan holda muvofiqlashtirish va boshqarish qoidalarini buzadi *ular ketadi, qiz bola yoki o‘g‘il bolani ko‘tarib kelyapti*. Agar paradigmatika elementlarni ularning umumiy jihatlariga ko‘ra invariant sinfga birlashtiruvchi qoidalarini qamrab oluvchi va bir vaqtning o‘zida ularni boshqa bir jihatlariga ko‘ra qarama-qarshi qo‘yuvchi mexanizm sifatida tushunilsa, sintagmatika esa elementlarni zanjirga terishni₅₁ tashkillashtirish qoidalarini qamrab

oluvchi mexanizm sifatida tushunilsa, demak til strukturasini ham, ushbu strukturadan elementlarni tanlab olishni ham belgilab beruvchi bu ikki fundamental mexanizmlarni prinsipial ravishda lokallashtirilishi miya chap yarim sharining ikkita asosiy sohalarida amalga oshiriladi.

Rus tili kabi tillarda ko'plab so'zlar o'zak qismi va qo'shimcha komponentlar tizimiga ega. Bu tarkibiy qismlar belgilanayotgan predmetning yoki harakatning nafaqat ahamiyatli jihatlarini belgilab beradi, balki ularni ma'lum kategoriyaga tegishli deb hisoblash imkonini beradi. So'zning aynan shu xususiyati tushuncha hosil qilish uchun zarur bo'ladi.

Ma'lumki, qiymatlarning so'zdan keyin turuvchi bu tizimi, darhol shakllanmaydi. Bola hayotining dastlabki 1 $\frac{1}{2}$ yilida so'zning qiymati juda qorishiq, o'zgaruvchan bo'ladi. Tovushlarning aynan bir sodda majmuasi teng darajada ham predmet, ham harakat, ham buyruq ma'nosiga ega bo'lishi mumkin. Bola tilidagi *tpru* so'zi ham "ot", ham "qamchi", ham "ketdik", ham "to'xta" vah.k. ma'nolarni bildirishi mumkin. Faqatgina bu o'zgaruvchan so'zga suffiks qo'shilsagina masalan, *tpru!* so'zi *tpru-nka* so'ziga aylanadi, u faqatgina ma'lum predmetni bildirib boshlaydi va harakat va sifatga tegishli bo'lmay qoladi. Bolaning tilidagi birinchi o'sish aynan uning tilida birinchi suffikslarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ayni shu vaqtda ko'plab so'zlarda paydo bo'luvchi va so'z boyligining muqarrar ravishda o'sishini talab etuvchi ma'nolarning torayishi yuzaga keladi. So'zning leksik-morfologik tashkillashtirilishi ham bu safar fonematik emas, balki so'zning semantik jihatlariga asoslangan qarama-qarshiliklarning paradigmatic tizimiga asoslangan.

Siyohdon so'zi nafaqat predmetni bildiradi, balki birdaniga uning tarkibiga qarama-qarshiliklar tizimini kiritib yuboradi. Rangni bildiruvchi *siyoh* o'zagi "siyoh" moddasining, bu jihat tarkibiga rangning boshqa qator belgilarini kiritgan holda muhim jihatlaridan birini ifodalaydi. -don qo'shimchasi esa ish quroli yoki vositasi vazifasini ko'rsatadi, shuningdek, uning biror narsa saqlanadigan idish jihatini ko'rsatadi va bu bilan ushbu so'zni aynan shu jihatlarga ega bo'lgan qator predmetlar qatoriga qo'shib qo'yadi. Masalan, tuzdon, sovundan kabi. Bu bilan uni

bu jihatlariga ega bo'lmagan boshqa predmetlarga qarma-qarshi qilib qo'yadi.

Bunga o'xshash ravishda, *pri-xodit* – kelish, *u-xodit* – ketish, *za-xodit* – kirish, *pod-xodit* – yaqinlashish fe'llarda old qo'shimchalarning o'zgarishi ham so'zlarni son, kelishik, zamon kategoriyalari bo'yicha o'zgarishlari belgilanayotgan hodisalarni tartibga solish, ularning zarur jihatlarini ajratib ko'rsatish va ularni ma'lum kategoriyalarga kiritish imkonini beruvchi kodlarning o'ta murakkab tizimini tashkil etadi. Bu holatlarning barchasida kodlarning leksik-morfologik tizimi nafaqat harakat, sifat va munosabatlarning ma'lum holatlarini belgilash imkonini beradi, balki bizning o'rnimizga zarur jihatlarini ajratgan holda, predmetlar yoki harakatlarni ma'lum kategoriyalarga kiritgan va belgilanayotgan hodisalarni, ushbu jihatga ega bo'lmagan yoki boshqa kategoriyalarga kiruvchi boshqa hodisalar bilan qarama-qarshi qo'ygan holda bajaradi. Albatta, bu kabi so'zni oddiygina ma'lum predmetga tegishlilikini belgilashdan ko'ra murakkabroq bo'lgan semantik tashkillashtirishga olib keladi.

Yuqoridagi misollardan ko'rish mumkinki, bosh miya faoliyatining buzilishi tilning fonetik sathiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida afaziyaga chalinganlarning nutqida talaffuz qilishga oid kamchiliklarni ko'rish mumkin. Yuqorida ko'rib o'tdikki, afaziyaning qaysi turiga chalinganiga bog'liq holda inson nutqida turli kamchiliklar yuzaga keladi. Motor afaziyaga chalinganlar tovushlarni umuman talaffuz qila olmasligi mumkin yoki bo'lmasa tovushlarni almashtirib talaffuz qiladi. Sensor afaziyaga chalinganlar esa tovushlarni anglay olmaydi. Buning natijasida ularning nutqida, o'qishida, yozishida kamchiliklar yuzaga keladi. Biz bu kabi afaziya turlarini o'rganib chiqib, tilshunoslikning fonetik sathiga ham ta'sir ko'rsatishini ko'rib o'tdik. Afaziya, ya'ni nutqiy buzilish faqat fonetik sathda emas, leksik, semantik, morfologik va sintaktik sathlarda ham namoyon bo'ladi. Leksik va semantik sathda so'zlarni qo'llash va ularning ma'nosi bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'yiladi. Afaziyaga chalinganlar so'zlarni talaffuz qilishda va gaplar tuzishda xatoliklarga yo'l qo'yadi va bu yozishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bosh miyaning₅₃ shikastlanishi nutqqa o'z ta'sirini ko

‘rsatar ekan, bu tilning barcha sathlarida namoyon bo‘ladi. Bun esa afaziyaning tilshunoslik bilan bog‘liq holda o‘rganilishiga asos bo‘la oladi.

Xulosa

Bilamizki, biz o‘rganayotgan barcha fanlar o‘ziga yaqin bo‘lgan fanlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Shu kabi neyrolingvistika fani ham ko‘pgina fanlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan fan hisoblanadi.

O‘rganilgan ishdan shuni xulosa qilish mumkinki, neyrofiziologiya va tilshunoslik fanlari oralig‘ida vujudga kelgan chegaradosh fan neyrolingvistika nutqiy faoliyatning miyadagi mexanizmlarini va miyaga mahalliy shikast yetishi natijasida nutqiy jarayonlarda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘rganuvchi fandır. Bosh miyaning shikastlanishi inson nutqiy faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishini, bosh miya faoliyati bilan nutqiy organlarning bog‘liqligini neyrolingvistika fani o‘rgatsa, uning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan afaziologiya bo‘limida biz nutqdagi buzilishlarni o‘rganamiz. Afaziya bo‘yicha ko‘pgina olimlar tadqiqot olib borgan. Ushbu ishda ko‘rilgan masalalardan kelib chiqib, nutqdagi buzilishlar o‘z- o‘zidan sodir bo‘lmasligi, unga qandaydir omillar ta’sir ko‘rsatishini bilish mumkin. Afaziologiyada biz nutqiy buzilishlarni, ya’ni bosh miyaning lokal jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan nutqiy buzilishlarni o‘rganar ekanmiz, ishda ko‘rsatilgan nutqiy buzilishlar tasnifida tashqari har bir nutq buzilishi shakllarining ichida turlari ajratilgan. Afaziyaning yuzaga kelishida bosh miyaning jarohatlanishi sabab bo‘lar ekan, bosh miya po‘stlog‘idagi nutq markazlari nutq jarayonini amalga oshirishda asosiy o‘rinda turuvchi zonalar hisoblanadi. Hatto o‘zgalar nutqini tushunish va gapirayotgan kishi o‘z nutqini idrok qilishi ham bosh miya po‘stlog‘ining faoliyati bilan bog‘liq. A.R. Luriya bosh miya shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan nutqiy buzilishlarni uch blok asosida o‘rganadi. Birinchisi gapirolmay qolish, ya’ni nutqning yo‘qolishi, ikkinchisi eshitib saqlab qololmaslik va uchinchisi fikr yurita olmaslikdir. Ushbu ishda afaziya turlarini va ularga xos bo‘lgan xususiyatlarni ko‘rsatishda A.R. Luriya tasnifiga asoslanildi. Miya shikastlanishi nutqiy buzilishga₅₄ olib kelar ekan, albatta, bu tilda

namoyon bo‘ladi. Afaziyaning til sathlarida namoyon bo‘lish omillariga introlingvistik omillar kiradi. Afaziya holati tilning fonetik, leksik, semantik, morfologik va sintaktik sathlarida voqelanadi. Ishda keltirilgan misollardan ham ko‘rish mumkinki, afaziyaga chalinganlarning nutqida tovushlarni almashtirib talaffuz qilish yoki umuman talaffuz qila olmaslik, so‘zlarni, iboralarni ma’nosini farqlamaslik, bir guruhga mansub so‘zlarni almashtirib qo‘llash, gap tuzishda so‘zlarni o‘rniga qo‘ya olmaslik va bir uslub o‘rniga boshqa uslubni farqlamasdan ishlatish kabi kamchiliklar uchraydi. Afaziyaga chalinganlardagi bu kabi nutqiy buzilishlarni tilshunoslikka bog‘liq holda o‘rganish logopedik muammolarni hal etishda nazariy ahamiyat kasb etadi. Afaziyaga chalinganlarda kuzatuv o‘tkazilganda, afaziya turiga qarab ularda har xil kamchiliklar uchragan. Semantik afaziyada umuman o‘zlari fikr yurita olmaydi, ular aytilgan fikrni yodlab olib takrorlashi mumkin. Afaziyaning tilda namoyon bo‘lishini ko‘pgina olimlar o‘rgangan va afaziyaga chalinganlar tovushlarni qo‘llashda, so‘zlarni qo‘llash va ularning ma’nolarini ifodalashda, gaplar qurilishida xatoliklarga yo‘l qo‘yishini alohida ko‘rsatib o‘tgan. Afaziyaga chalinganlar nutqida bundan tashqari uslubshunoslikka oid nutqiy buzilishlar ham uchraydi. Afaziya holatining til sathlarida namoyon bo‘lishi neyrolingvistika fanining neyrofiziologiya va tilshunoslik fanlari oralig‘ida vujudga kelganligining yana bir isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yxati.

1. Каримов И. А. Юуксак маънавият – енгилмас куч – Тошкент, 2008
2. Ахутина Т.В. Нейролингвистический анализ динамической афазии. – М. , 1975.
3. Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент, 2007.
4. Bekmuhammedova N. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent, 2000 // maruzalar matni.
5. Белянин В. П. Психоллингвистика. – М.: Флинта: Московский психолого-социальный. 2003.
6. Бейн Э.С. , Бурлакова М. К. , Вызель Т. Г. Восстановления речи у больных с афазией. – М , 1982.
7. Бодеун де Куртене И. А. Из патологии и эмбриологии языка. – Варшава, 1885.
8. Выготский Л. С. Полное собрание сочинений. VI том. – М. , 1982-1984.
9. Вынарский Е. Н. Клинические проблемы афазии. – М. , 1971.
10. Жинкин Н. И. Речь как проводник информации. – М. , 1982.
11. Зуфарова Ш. Н. Умумий психология. – Тошкент, 2010.
12. Калита Н. Г. К вопросу о природе нарушения называния при акустико – мнистической афазии. – М. , 1974.
13. Лурия А. Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражения мозга. – М. , 1969.
14. Лурия А. Р. Травматическая афазия. – М. , 1947.
15. Лурия А. Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М. , 1979- 2009.
16. Лурия А. Р. Язык и сознание. – М. , 1979.
17. Mo‘minova L. , Qahramonova M. Logopediya terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent, 1988.

18. Nurmonov A. , Yoʻldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent, 2001.
19. Павлов И. Г. Полное собрание сочиненийю III том. Кн.2. – М. , 1952.
20. Пенфилд В. , Робертс А. Речь и мозговые механизмы. – Лондон, 1964.
21. Сахарный Л. В. Введение в психолингвистику. – Ленинград, 1889.

22. Трауготт К. Н. , Кайданова С. И. Нарушение слуха при сенсорной алалии и афазии. – Лондон, 1975.
23. Цветкова А. С. Проблемы афазии и восстановительного обучения I том. – М., 1975.
24. [www. google. ru](http://www.google.ru) // Нейролингвистика.
25. [www. yandex. ru](http://www.yandex.ru) // Нейролингвистика
26. [www. filologia. ru](http://www.filologia.ru) // Nijrolingvistika
27. [www. zametki logopeda. Jimdo.com](http://www.zametki-logopeda.jimdo.com).
28. [www. genling nw. ru](http://www.genling-nw.ru)